



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TASHKILOTLARINI

KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITASIYASIDAN

O'TKAZISHGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA

QO'LLANMA



www.nqaae.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY
AGENTLIGI

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
ta'lim dasturlarini
KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha
QO'LLANMA

Toshkent-2026

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan ishlab chiqilgan rasmiy uslubiy hujjat bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlari tomonidan, ularning idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim dasturlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida ichki (o'zini o'zi) baholashni samarali tashkil etish maqsadida foydalanish uchun tavsiya etiladigan me'yoriy-uslubiy qo'llanma hisoblanadi.

Qo'llanma kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarida joriy etilayotgan hamda amalda tatbiq etilayotgan malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim dasturlarining davlat ta'lim standartlari hamda kompleks davlat akkreditatsiyasi mezonlariga muvofiqligining kompleks baholashni ta'minlashga xizmat qiladi, shuningdek, ta'lim dasturlarini takomillashtirish, ularning sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy asoslar hamda amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Qo'llanmada kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim dasturlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish doirasida belgilangan har bir baholash yo'nalishi, mezoni va indikatori kesimida tahlil o'tkazish, zarur ma'lumotlarni shakllantirish, shuningdek, baholash natijalarini asoslovchi tegishli dalillar va hujjatlarni aniqlash, ularni tizimlashtirish va belgilangan tartibda rasmiylashtirish mexanizmlari batafsil bayon etilgan.

Ushbu qo'llanma kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlari rahbarlari, ta'lim sifatini ta'minlash bo'linmalari xodimlari hamda professor-o'qituvchilar uchun ta'lim dasturlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida amaliy qo'llanma va metodik yo'riqnoma sifatida xizmat qiladi.

©O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi, 2026-y.

MUNDARIJA

Qo'llanilgan qisqartma so'zlar.....	4
KIRISH.....	5
ASOSIY TUSHUNCHALAR VA TERMINLAR.....	7
KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ARIZANI RASMIYLASHTIRUSH TARTIBI.....	8
ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI SHAKLLANTIRISH.....	9
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TA'LIM DASTURLARINI BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI, INDIKATORLARI.....	13
I. Tashkiliy-boshqaruv faoliyati yo'nalishi.....	13
II. Ta'lim sifatini ta'minlash yo'nalishi.....	26
III. Tinglovchilar faoliyati yo'nalishi.....	36
IV. O'quv jarayonini tashkil etish yo'nalishi.....	41
V. Inson resurslari yo'nalishi.....	52
VI. Tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishi.....	61
VII. Moddiy texnik ta'minot yo'nalishi.....	69
ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI KO'RIB CHIQISH.....	86
BAHOLASH YO'NALISHI MEZON VA INDIKATORLAR BO'YICHA NATIJALARNI HISOBLASH.....	87
<i>Ilova: kadrlarni qayta tayyorlash va ularning masalasini oshirish ta'lim dasturi bo'yicha ichki baholash hisobot shakli.....</i>	<i>89</i>
ICHKI BAHOLASH NATIJALARI BO'YICHA XULOSA	109
Kompleks davlat akkreditatsiyasi uchun ichki baholash hisoboti uchun namunaviy jadvallar.....	110
QAYDLAR UCHUN.....	111

Qo'llanilgan qisqartma so'zlar

Qisqartmalar	Mazmuni
ARM	Axborot resurs markazi
AKT	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
DTS	Davlat ta'lim standarti
LMS	Ta'limni boshqarish tizimi
MMR	Milliy malakalar ramkasi
MOQT	Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkiloti

KIRISH

Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomda belgilangan vazifalardan kelib chiqib ishlab chiqilgan.

Mazkur qo'llanmaning asosiy maqsadi kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida ichki (o'zini o'zi) baholashni samarali tashkil etish bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatishdan iborat.

Qo'llanmada baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari milliy normativ-huquqiy baza talablariga muvofiq holda xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirilgan. Bu esa ta'lim dasturlarining sifati va raqobatbardoshligini oshirish, ularning xalqaro maydonda tan olinishi darajasini yuksaltirish hamda milliy malaka tizimi bilan integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ichki baholash jarayoni nafaqat tashqi akkreditatsiyaga tayyorgarlik bosqichi, balki ta'lim dasturlarining samaradorligi, mehnat bozori ehtiyojlariga mosligi, ta'lim natijalarining barqarorligi hamda institutsional rivojlanishni ta'minlovchi strategik boshqaruv vositasi sifatida qaraladi.

Qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2025-yil 22-dekabdagi "Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlarni tasdiqlash haqida"gi 8-son buyrug'i (ro'yxat raqami — 3747) bilan tasdiqlangan indikatorlar asosida zarur axborot va dalillarni shakllantirish hamda taqdim etish tartibi batafsil yoritilgan.

Mazkur qo'llanma kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonlarini yagona talablar asosida tashkil etish, baholash yo'nalishlari va mezonlarini aniq belgilash, ichki (o'zini o'zi) baholash hisobotini to'g'ri shakllantirish, asoslovchi hujjatlarni tizimli yig'ish hamda tashqi baholash jarayoniga puxta tayyorgarlik ko'rish bo'yicha metodik ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi.

Ichki baholash hisobotini tayyorlash bo'yicha yagona ko'rsatmalarga rioya etilishi ta'lim tashkilotlari va tashqi baholashni amalga oshiruvchi ekspert

komissiyalarining ish samaradorligini oshiradi hamda baholash jarayonlarini soddalashtiradi.

Ichki baholash jarayonining asosiy maqsadi ta'lim tashkiloti faoliyatini har tomonlama chuqur tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda ularning kelgusidagi samaradorligini oshirish uchun zarur institutsional shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Ichki baholash jarayonida ta'lim tashkiloti faoliyati tahliliy, tanqidiy va natijaviylikka yo'naltirilgan yondashuv asosida o'rganiladi hamda baholanadi.

Ichki baholash hisoboti tegishli baholash yo'nalishlari va mezonlariga muvofiq tuzilgan bo'lim va boblardan iborat tizimli tahliliy hujjat shaklida tayyorlanadi. Hisobotga kiritilgan miqdoriy ko'rsatkichlar sifat tahlilini dalillar bilan mustahkamlaydi.

Ta'lim dasturi bo'yicha ichki baholash hisoboti tashqi baholash jarayonida ekspert komissiyalari uchun asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Ichki baholash hisobotini tayyorlash maqsadida ta'lim tashkiloti ma'muriyati, pedagoglari, tinglovchilari, shuningdek ish beruvchilar va (yoki) ijtimoiy hamkorlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzilishi mumkin.

Ichki baholash hisobotini tayyorlashda quyidagi talablarga rioya etilishi shart:

- qo'llanmada belgilangan ketma-ketlik asosida shakllantirish;
- keltirilgan har bir ma'lumotni aniq, tushunarli va dalillar bilan asoslash;
- davlat tili va grammatik me'yorlariga qat'iy amal qilish;
- huquqiy va akademik terminologiyadan to'g'ri foydalanish;
- istiqbolli rejalar, loyihalar va kutilayotgan natijalarni aniq ko'rsatish;
- har bir baholash mezonini bo'yicha qisqa, aniq va dalillarga asoslangan ma'lumotlarni kiritish.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning 7 ta baholash yo'nalishlari doirasida 34 ta mezonlar hamda ularni tavsiflovchi 147 ta indikatorlari mavjud. Shundan 7 ta indikator majburiy indikator hisoblanadi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR VA TERMINLAR

Ta'lim dasturlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bilan bog'liq hujjatlar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida rasmiylashtiriladi.

Shuningdek, ta'lim dasturlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning ichki baholash hisoboti Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan nizom va ushbu qo'llanmaning asosiy tushuncha va terminlaridan foydalangan holda shakllantiriladi.

Yuqorida qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlardan tashqari quyidagi tushuncha va terminlar davlat akkreditatsiyasi jarayonlarida keng foydalaniladi:

Maxsus vakolatli organ – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) davlat akkreditatsiyasini o'tkazish organi.

Baholash yo'nalishi – ta'lim dasturining sifati va samaradorligini baholash uchun belgilangan asosiy yo'nalishlar majmui bo'lib, ta'lim dasturining mazmuni, o'qitish jarayoni, professor-o'qituvchilar salohiyati, tinglovchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar, moddiy-texnik baza, infratuzilma, boshqaruv va natijalar kabi yirik tarkibiy sohalarni qamrab oladi;

Mezon – muayyan baholash yo'nalishida ta'lim dasturining sifatiga qo'yiladigan minimal talablar va standartlar majmui. Mezon ta'lim dasturining muayyan sohada (masalan, ta'lim natijalari, moliyaviy barqarorligini ta'minlash, baholash tizimi, kadrlar salohiyati) qay darajada talablarga muvofiq ekanligini aniqlash uchun asos bo'ladi;

Indikator – Agentlik tomonidan belgilangan mezon bajarilishini aniq, o'lchab bo'ladigan, asoslantiruvchi dalillar bilan tasdiqlanadigan ko'rsatkich. Indikator orqali ta'lim dasturining mezonga mosligi faktlar, raqamlar, hujjatlar, jarayonlar yoki natijalar asosida baholanadi;

Ichki baholash hisoboti – ta'lim tashkiloti tomonidan har bir ta'lim dasturini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bo'yicha tayyorlanadigan hujjat bo'lib, ta'lim dasturini baholash yo'nalishlari, mezonlar va indikatorlarga qanchalik mosligi haqidagi tahlillar, dalillar va xulosalarni o'z ichiga oladi;

tashqi baholash hisoboti— ta’lim tashkiloti faoliyatini, kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining davlat ta’lim standartlari (talablari) hamda akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini Agentlik tomonidan baholash jarayoni;

Ta’lim tashkiloti – kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malaka oshirish ta’lim tashkilotlari;

Asoslantiruvchi hujjatlar – mezon yoki indikator bajarilganini tasdiqlaydigan hujjatlar, ma’lumotlar, statistika, jarayonlar, qarorlar, foto/video materiallar yoki boshqa aniq asoslar.

KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ARIZANI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

Ta’lim tashkilotini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o’tkazish to’g’risidagi arizalar Agentlikning ta’lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyadan o’tkazish va reytingini yuritish bo’yicha “akkreditation.nqaae.uz” axborot tizimi orqali elektron shaklda qabul qilinadi.

Davlat akkreditatsiyasidan o’tkazish to’g’risidagi arizani shakllantirish, qo’shimcha hujjatlarni taqdim qilish va ularni ko’rib chiqish Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O’rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o’tkazish tartibi to’g’risida” nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ta’lim tashkilotini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o’tkazishda ta’lim tashkilotining qonuniy vakili yoki ariza beruvchi belgilangan talablar asosida ariza topshirish, yig’imlarni belgilangan muddatlarda amalga oshirish, Agentlik va ta’lim tashkiloti o’rtasida shartnomani rasmiylashtirish, ekspert komissiyasi (joyiga chiqqan holda) akkreditatsiya jarayonini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga hamda ma’lumotlarni belgilangan muddatlarda taqdim qilishga mas’ul hisoblanadi.

ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI SHAKLLANTIRISH

Ta'lim tashkiloti tomonidan tayyorlangan ichki baholash hisobotida davlat akkreditatsiya mezonlari asosida ta'lim tashkiloti (dasturi)ni dalillarga tayangan holda real holatini tahlil qilish, baholash va uni takomillashtirish choralari belgilaydi va unda keltirilgan ma'lumotlar ekspert komissiyalari tomonidan ta'lim tashkiloti (dasturlari)ni tashqi baholash jarayonlarida foydalaniladi.

Ta'lim tashkiloti tomonidan tayyorlangan ichki baholash hisoboti davlat akkreditatsiyasi mezonlari asosida ta'lim tashkiloti (dasturi)ning kuchli va takomillashtirish lozim bo'lgan jihatlarini aniqlash, ta'lim sifatini doimiy yaxshilashga qaratilgan xulosa va takliflarni shakllantirish, shuningdek, kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tish uchun ishonchli ma'lumotlar bazasini tayyorlash maqsadida ishlab chiqiladi.

Akkreditatsiya yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga qat'iy muvofiqlikni ta'minlash uchun hisobot amaldagi kompleks davlat akkreditatsiyasi baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga mos bo'lishi shart. Bunda, har bir indikator bo'yicha amaldagi holat, dalillar va xulosalar aniq yoritilishi lozim.

Bunda, har bir indikator bo'yicha:

amaldagi holat;

dalillar (asoslantiruvchi hujjatlar);

xulosa;

takomillashtirish choralari aniq bayon etilgan shakldagi hisobot tuzilishi shart.

Shuningdek, ichki baholash kompleks davlat akkreditatsiyasi o'tkaziladigan o'quv yilida o'tkazilishi hamda ta'lim tashkilotining oxirgi bir yillik hamda davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladigan o'quv yilidagi faoliyati tahlili qamrab olinishi lozim.

E'TIBOR BERING!!!

Ichki baholash hisobotini to'g'ri shakllantirishda mazkur qo'llanmaning "Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim dasturlarini baholash yo'nalishlari, mezonlari, indikatorlari" bo'limida har bir indikator bo'yicha tavsiya etilgan savollardan hamda dalillar (asoslovchi hujjatlar) ro'yxatidan foydalangan holda aniq va asosli ma'lumotlar kiritilishi lozim.

Shuningdek, kiritilgan ma'lumotlar hamda ularni dalillari (asoslovchi hujjatlar) elektron shaklda platformaga yuklanishi shart.

Ichki baholash hisobotining asoslantirilmagan umumiy bayon etilgan ma'lumotlardan iborat qismi hisobot sifatida qabul qilinmaydi.

Qabul qilinmagan ichki hisobot ta'lim tashkilotiga qaytarilganda, ta'lim tashkiloti 10 kun muddatda uni qaytadan ishlab chiqib taqdim etishi shart.

Ta'lim tashkiloti rahbari berilgan har bir baholash xulosasi rasmiy hujjatlar, ma'lumotlar (statistika), hisobotlar, buyruqlar, qarorlar, so'rovnoma va fikr-mulohazalar tahlili bilan dalillarga asoslanganligini tekshirgan har bir sahifasini imzolagan holda taqdim etilishini ta'minlanishi shart.

Hisobotning haqqoniyligi va tanqidiy yondashilganligini ta'minlash uchun real holatni aks ettirishi, sun'iy "yuqori baholash"dan holi bo'lish, kamchiliklar ochiq va aniq ko'rsatilishi, sabablar tahlil qilinib, aniq yechimlar taklif qilinishi lozim.

Hisobotni milliy va xalqaro standartlar bilan uyg'un holda davlat ta'lim standartlari, milliy malaka ramkasi, akkreditatsiya mezonlari, shuningdek, xalqaro yondashuvlar bilan aks ettirilishi maqsadga muvofiq.

Ta'lim natijalari aniq, o'lchanadigan va tekshiriladigan bo'lishi, kasbiy standartlar va mehnat bozori ehtiyojlari bilan bog'liqligi, qayta tayyorlash kursini tugatgan tinglovchilar ishga joylashishi, amaliyot, dual ta'lim natijalari tahlil qilinishi lozim.

Hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning aktualligini oshirish uchun ta'lim oluvchilar, pedagoglar, ish beruvchilar, tinglovchilar va boshqa manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari inobatga olinishi shart hisoblanadi.

Hisobot ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanishi va elektron (zarur hollarda qog'oz) shaklda saqlanishi hamda Agentlikka tayyor holatda taqdim etilishi lozim.

BAHOLASH YO'NALISH, MEZON VA INDIKATORLAR BO'YICHA NATIJALARNI HISOBLASH

Baholash mezonlari majburiy va umumiy indikatorlarga bo'linadi hamda "muvofiq" yoki "muvofiq emas" tarzida baholanadi.

Mezon tarkibidagi mavjud majburiy indikator (majburiy indikatorlardan biri) "muvofiq emas" deb topilsa, umumiy natijadan qat'i nazar, ushbu mezon "muvofiq emas" deb baholanadi.

Tashqi baholash mezonlari majburiy va umumiy mezonlarga bo'linadi hamda har bir mezon "muvofiq", "qisman muvofiq" yoki "muvofiq emas" deb baholanadi.

Tashqi baholash mezonlari majburiy va umumiy indikatorlar bo'yicha quyidagi tartibda aniqlanadi:

60 foiz va undan ortiq indikatorlar “muvofiq” deb baholansa — mezon “muvofiq”;

50 foizdan 60 foizgacha indikatorlar “muvofiq” deb baholansa — mezon “qisman muvofiq”;

50 foizgacha indikatorlar “muvofiq” deb baholansa — mezon “muvofiq emas” deb baholanadi.

Mezon tarkibidagi mavjud majburiy indikator (majburiy indikatorlardan biri) “muvofiq emas” deb topilsa, umumiy natijadan qat’i nazar, ushbu mezon “muvofiq emas” deb baholanadi.

Har bir baholash yo’nalishi “muvofiq” yoki “muvofiq emas” deb e’tirof etiladi. Bunda har bir baholash yo’nalishi quyidagi shartlar bajarilganda “muvofiq” deb baholanadi:

majburiy mezonlarning barchasi “muvofiq” deb baholanganda;

umumiy mezonlarning ko’pi bilan ikkitasi “qisman muvofiq” deb baholanganda; “muvofiq emas” deb baholangan mezonlar mavjud bo’lmaganda.

Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan har bir baholash yo’nalishi “muvofiq” deb e’tirof etilganda, ushbu ta’lim tashkiloti **“davlat akkreditatsiyasidan o’tdi”** deb, “muvofiq emas” deb e’tirof etilganda esa **“davlat akkreditatsiyasidan o’tmadi”** deb qaror qabul qilinadi.

ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI KO’RIB CHIQISH

Ta’lim sifatini tashqi baholash uchun Agentlik tomonidan ekspert komissiyasi tashkil etiladi. Ekspert komissiyasi malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’lim tashkilotidagi ta’lim dasturlari xususiyatidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Ekspert komissiyasi tarkibi ta’lim tashkilotlarining pedagog va rahbar xodimlari, ilmiy-tadqiqot institutlarining yetakchi olimlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas’ul xodimlari, ish beruvchi korxonalar (tashkilot)larining mutaxassislari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari hamda tinglovchilar orasidan shakllantiriladi. Ekspert komissiyalari tarkibiga xorijiy ekspertlarni ham jalb etilishi mumkin.

Ekspert komissiyasining vazifalari quyidagilardan iborat:

ichki baholash natijalari bo’yicha olingan ma’lumotlarni ekspertizadan o’tkazish hamda tashqi baholashni amalga oshirish;

ta’lim tashkilotidagi ta’lim sifati va mazmunining davlat ta’lim talablari, akkreditatsiya mezonlari va ta’lim dasturlariga muvofiqligi baholash;

ta'lim sifatini oshirish va ta'lim xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish hamda tashqi baholash natijalari yuzasidan hisobotni tayyorlash va Akkreditatsiya komissiyasiga taqdim etish.

Ichki baholash hisoboti mazkur **yo'riqnomaning ilovasida keltirilgan namuna** asosida shakllantiriladi.

Ta'lim tashkiloti ichki baholash natijasida shakllantirilgan hisobot va unga tegishli materiallarni elektron va (yoki) qog'oz shaklida tasdiqlangan holda, tashqi baholash boshlanishidan kamida **ikki oy oldin** Agentlikka platforma orqali taqdim etadi.

Ekspert komissiyasi ichki baholash hisobotini o'rganadi va undan tashqi baholash jarayonida foydalanadi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim tashkilotini kompleks akkreditatsiyasi joyiga chiqqan holda, **besh ish kundan oshmagan muddatda** o'tkaziladi.

Tashqi baholash jarayonining ichki baholash hisobotida haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlar aniqlanishi, shuningdek, belgilangan muddatlarda hujjatlar va ma'lumotlarning taqdim qilinmasligi yoki kamchiliklarning bartaraf etilmasligi davlat akkreditatsiyasidan o'tkazmaslik uchun asos bo'ladi.

Dastlabki hisobot tashqi baholash natijalari asosida ekspert komissiyasi tomonidan tayyorlanadi va hisobotning xulosasi Agentlik orqali ta'lim tashkilotiga taqdim qilinadi.

Ta'lim tashkiloti dastlabki hisobot bo'yicha asoslantirilgan taklif va e'tirozlarini Agentlikka **uch ish kuni ichida** rasman taqdim etadi. Taqdim etilgan taklif va e'tirozlar asosida ekspert komissiyasi tomonidan yakuniy hisobot tayyorlanadi.

Ta'lim tashkiloti tomonidan taqdim qilingan ichki baholash hisoboti asosida ekspert komissiyasi masofaviy shaklda tashqi baholashni amalga oshirishi mumkin.

KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TA'LIM DASTURLARINI BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI, INDIKATORLARI

I. Tashkiliy-boshqaruv faoliyati yo'nalishi

Izoh: Ta'lim dasturini samarali amalga oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va ta'lim sifatini ichki ta'minlash orqali mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim dasturini muntazam takomillashtirishga qaratilgan faoliyat baholanadi.

1. MEZON: Ta'lim tashkilotida Ilmiy-pedagogik (metodik) kengashning (bundan buyon matnda Kengash deb yuritiladi) tashkil etilgani va uning faoliyati samaradorligi 

Izoh: Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilmaning mavjudligi, uning vazifalari aniq belgilanganligi hamda samarali ishlash mexanizmlari yo'lga qo'yilganligi o'rganiladi.

1.1. INDIKATOR

Kengash tashkil etilgan hamda ta'lim tashkilotining boshqaruv tuzilmasida o'z o'rniga ega

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim tashkiloti kengashi qanday mezonlar asosida tashkil etilgan va uning vazifalari qanday belgilangan?

❖ Ta'lim tashkiloti kengashining tarkibiy tuzilmasi qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi va rasmiylashtiriladi?

❖ Ta'lim tashkiloti kengashi faoliyatini tashkil etish va uning qarorlarini amalga oshirish mexanizmlari qanday yo'lga qo'yilgan?

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ Ilmiy-pedagogik (metodik) kengashning nizomi

✓ Ilmiy-pedagogik (metodik) kengash tashkil etilganligi to'g'risidagi hujjatlar

1.2. INDIKATOR

Kengash tarkibi, vakolatlari, funksiyalari va mas'uliyati ichki nizomlarda aniq belgilangan, a'zolarining malakasi ta'lim sifati bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi

Yordamchi savollar:

❖ Kengashining vakolatlari, vazifalari va funksiyalari qanday hujjatlar bilan belgilangan hamda ular amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga qanchalik mos keladi?

❖ *Kengashining ish yuritish tartibi (majlislarga chaqirish, qaror qabul qilish, bayonnoma yuritish) qanday tartibda tashkil etilgan?*

❖ *Kengash tomonidan belgilangan vakolat va vazifalarning amalda bajarilishi qanday mexanizmlar orqali ta'minlanadi va nazorat qilinadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Ilmiy-pedagogik (metodik) kengashning nizomi*

1.3. INDIKATOR

Kengashning yillik ish rejasi tasdiqlangan hamda reja asosida o'tkazilgan yig'ilishlar, ko'rib chiqilgan masalalar va qabul qilingan qarorlar tegishli tartibda bayonnomalarda rasmiylashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Kengashning yig'ilishlari qanday davriylikda va qanday tartibda tizimli ravishda o'tkazilgan?*

❖ *Kengash yig'ilishlarida qabul qilingan qarorlar qanday hujjatlashtirilgan va ular asosida chora-tadbirlar rejalari qanday ishlab chiqilgan?*

❖ *Yig'ilish qarorlari asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejalari ijrosi qanday mexanizm orqali monitoring va nazorat qilinadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Ilmiy-pedagogik (metodik) kengash yillik ish rejasi*

✓ *Ilmiy-pedagogik (metodik) kengash yig'ilishlarining bayonnomalari va chora-tadbirlar rejasi*

1.4. INDIKATOR

Kengash tomonidan qabul qilinadigan qarorlar ta'lim sifati, strategik rivojlanish, moliyaviy boshqaruv va resurslardan samarali foydalanishni yaxshilashga qaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Kengash tomonidan qabul qilinadigan qarorlar qanday yo'nalishlarda (ta'lim sifati, professor-o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari) ishlab chiqiladi va ularning strategik rivojlanish bilan bog'liqligi qanday ta'minlanadi?*

❖ *Qabul qilingan qarorlar orqali ta'lim sifatini oshirish va professor-o'qituvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

❖ *Kengash qarorlari asosida moddiy-texnik, moliyaviy va inson resurslaridan samarali foydalanish natijalari qanday baholanadi va tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Ilmiy-pedagogik (metodik) kengash yig'ilishlarining bayonnomalari va chora-tadbirlar rejasi*

1.5. INDIKATOR

Kengash qarorlarining ijrosi bo'yicha mas'ullar va muddatlar aniqlangan, qarorlar o'quv jarayoni, ilmiy-metodik faoliyat, moddiy-texnik baza va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatadi

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkiloti kengashi qarorlarining ijrosi bo'yicha mas'ullar va bajarish muddatlari qanday tartibda amalga oshiriladi?*

❖ *Kengash qarorlari ta'lim sifatini ta'minlash jarayonidagi ishtiroki qanday mexanizmlar orqali yo'lga qo'yilgan va ularning qarorlari ta'lim jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?*

❖ *Ta'lim tashkiloti kengashining maqsadlari va vazifalari qanday hujjatlar bilan aniq belgilangan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Ilmiy-pedagogik (metodik) kengash yillik ish rejasi*

✓ *Ilmiy-pedagogik (metodik) kengash yig'ilishlarining bayonnomalari va chora-tadbirlar rejasi*

1.6. INDIKATOR

Kengash qarorlarining ijrosi va samaradorligi bo'yicha monitoring tizimi joriy etilgan, natijalar muntazam tahlil qilinadi va zarur hollarda tuzatish chora-tadbirlari ko'riladi

Yordamchi savollar:

❖ *Kengash qarorlarining ijrosi va samaradorligi monitoringi qanday mexanizmlar asosida olib boriladi?*

❖ *Kengash qarorlarining ijrosi natijalari qancha muddatda va qanday tartibda ko'rib chiqiladi?*

❖ *Kengash qarorlarining ijrosi bo'yicha zarur hollarda qanday chora-tadbirlar ko'riladi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Kengash qarorlari ijrosi monitoringi (hisobot) va unga ilova qilingan reyestri/jadvali*

2. MEZON: Ta'lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va rejalashtirish, ta'lim sifatini ta'minlash uchun moliyaviy resurslarning maqsadli yo'naltirilgani

***Izoh:** Ta'lim dasturini rivojlantirish va uning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan 3 yillik istiqbolli rejaning ishlab chiqilganligi, unda asosiy maqsadlar, rivojlanish yo'nalishlari hamda moliyaviy manbalar belgilanganligi o'rganiladi.*

2.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotining istiqbolli rivojlanish rejasi, yillik ish rejasi va moliyaviy rejasi (smeta) o'zaro uyg'un holda ishlab chiqilgan, ta'lim sifati ko'rsatkichlarini yaxshilashga yo'naltirilgan va tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotining istiqbolli rivojlanish rejasi, yillik ish rejasi va moliyaviy rejasi (smeta) qanday mezonlar asosida ishlab chiqilgan?*

❖ *Istiqbolli rejada ta'lim sifati ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan qanday ustuvor vazifalar ko'rsatilgan?*

❖ *Moliyaviy mablag'lardan foydalanish natijalari qanday tartibda monitoring qilinadi va tahlil natijalari asosida moliyaviy rejalarga qanday tuzatishlar kiritiladi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotining 3 yillik istiqbolli rivojlanish rejasi*

✓ *Ta'lim tashkilotining yillik ish rejasi*

✓ *Ta'lim tashkilotining tasdiqlangan yillik moliyaviy rejasi (smeta)*

2.2. INDIKATOR

Moliyaviy resurslarni shakllantirish manbalari aniqlangan, ulardan foydalanish tartibi va ustuvor yo'nalishlari ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan holda hujjatlashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkiloti moliyaviy resurslarni shakllantirishda qanday mezonlar asosida ishlab chiqilgan?*

❖ *Mazkur yo'nalishlarga ajratilgan moliyaviy mablag'larning ta'lim sifati va ta'lim jarayonini yaxshilashga ta'siri qanday baholangan?*

❖ *Moliyaviy resurslar taqsimotining maqsadga muvofiqligi va samaradorligi qanday tartibda monitoring va tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Ta'lim tashkilotining tasdiqlangan yillik moliyaviy rejasi (smeta)*
- ✓ *Davlat byudjeti, to'lov-kontrakt va xo'jalik faoliyati daromadlari bo'yicha hisobotlar*

2.3. INDIKATOR

Moliyaviy rejada ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar salohiyatini rivojlantirish va moddiy-texnik bazani yangilashga yo'naltirilgan xarajatlar aniq belgilangan, mablag'lar maqsadli va samarali yo'naltiriladi

Yordamchi savollar:

- ❖ *Moliyaviy rejada ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan xarajatlar qanday rejalashtirilgan va maqsadli sarflanishi qanday ta'minlangan?*
- ❖ *Moliyaviy rejada pedagog kadrlar salohiyatini rivojlantirish va moddiy-texnik bazani yangilash bo'yicha qanday mexanizmlar ishlab chiqilgan?*
- ❖ *Ta'lim tashkilotida mablag'lar maqsadli va samarali yo'naltirilganligi monitoringi qanday tartibda olib boriladi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Ta'lim tashkilotining tasdiqlangan yillik moliyaviy rejasi (smeta)*
- ✓ *Moliyaviy resurslar va yillik moliyaviy reja ijrosi bo'yicha monitoring hisobotlari*

2.4. INDIKATOR

Mablag'larning belgilangan yo'nalishlarda maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlovchi ichki audit va moliyaviy nazorat jarayonlari yo'lga qo'yilgan, audit natijalari bo'yicha tegishli tuzatish va takomillashtirish chora-tadbirlari ko'riladi

Yordamchi savollar:

- ❖ *Moliyaviy resurslardan foydalanish va yillik moliyaviy reja ijrosi bo'yicha monitoring qanday tartibda va qanday davriylikda amalga oshirilgan?*
- ❖ *Monitoring jarayonida to'plangan ma'lumotlar qanday usullar orqali tahlil qilingan va tahlil natijalari qanday rasmiylashtirilgan?*
- ❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlash bo'yicha qanday qarorlar qabul qilingan va ularning ijrosi qanday nazorat qilingan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Moliyaviy resurslar va yillik moliyaviy reja ijrosi bo'yicha monitoring hisobotlari*

3. MEZON: Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasining ishlab chiqilgani va uni amalga oshirish uchun resurslar mavjudligi, shuningdek, uning jamoatchilik uchun ochiqligi va monitoringi yuritilgani

Izoh: Ta'lim tashkilotida rivojlantirish rejasining mavjudligi, uni amalga oshirish uchun zarur resurslarning belgilanganligi, jarayonlarga pedagoglar, tinglovchilar, ish beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlanganligi hamda ma'lumotlarning rasmiy veb-sayt orqali jamoatchilikka ochiq taqdim etilganligi baholanadi.

3.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasi sohaning ustuvor yo'nalishlari, mehnat bozori tahlillari va kadrlar malakasini oshirish bilan uyg'un holda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan*

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasi (istiqbolli reja, strategiya) qanday tartibda ishlab chiqilgan va qaysi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan?*

❖ *Rivojlantirish rejasida ta'lim tashkilotini rivojlantirishning maqsadlari va vazifalari, ularni amalga oshirish mexanizmlari, ijro muddatlari hamda mas'ul ijrochilar qanday aniqlikda belgilangan?*

❖ *Rivojlantirish rejasida belgilangan maqsad va vazifalarning bajarilishi qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinadi va natijalar qanday tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotining 3 yillik istiqbolli rivojlanish rejasi*

✓ *Mehnat bozori ehtiyojlari va sohaviy ustuvor yo'nalishlar bo'yicha tahliliy ma'lumot*

3.2. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasida maqsadlar, ustuvor yo'nalishlar, muddat va mas'ul ijrochilar hamda kutilayotgan natijalar belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasida maqsadlar, ustuvor yo'nalishlar qanday tartibda ishlab chiqilgan?*

❖ *Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasida mas'ul ijrochilar va muddatlari qanday aniqlikda belgilangan?*

❖ *Rivojlantirish rejasida belgilangan maqsad va vazifalarning bajarilishi hamda kutilayotgan natijalar qanday tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotining 3 yillik istiqbolli rivojlanish rejasi*

3.3. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy, moddiy va inson resurslari ajratilgan, ularning taqsimoti ustuvor yo'nalishlar bilan uyg'unlashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotining rivojlantirish rejasini amalga oshirish uchun moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari qanday rejalashtirilgan?*

❖ *Mazkur resurslarning taqsimoti rivojlantirish rejasida belgilangan maqsad va vazifalar bilan qanday tarzda uyg'unlashtirilgan?*

❖ *Ajratilgan moddiy-texnik, moliyaviy va inson resurslaridan foydalanish samaradorligi qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotining tasdiqlangan yillik moliyaviy rejasi (smeta) va hisoboti*

3.4. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasining bajarilish holati va natijalarini ochiq hamda shaffof tarzda jamoatchilikka yetkazib borish mexanizmlari yaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotining rivojlantirish rejasi ijrosi va natijalarini jamoatchilikka taqdim etish qanday vositalar orqali amalga oshirilgan?*

❖ *Ushbu ma'lumotlarni ochiq va shaffof taqdim etishning davriyligi va mas'ul ijrochilari qanday tartibda belgilangan?*

Jamoatchilikka taqdim etilgan rivojlantirish rejasining ijrosi va natijalari bo'yicha bildirilgan fikr-mulohazalar qanday tartibda tahlil qilingan?

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Istiqbolli rivojlantirish rejasi natijalari bo'yicha hisobotlar (rasmiy veb-sayti orqali)*

4. MEZON: Ta'lim tashkilotining hudud va respublikaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi

Izoh: Ta'lim tashkilotining hudud va respublika miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishga qo'shayotgan hissasini baholash, mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash, *madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish*

hamda boshqa ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishi baholanadi.

4.1. INDIKATOR

Tashkilotlar, korxonalar va muassasalar bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotida sohalarni rivojlantirish yo'nalishlarida qaysi tashkilotlar, korxonalar va muassasalar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan?*

❖ *Mazkur hamkorlik aloqalari qanday hujjatlar va mexanizmlar (memorandum, shartnoma, qo'shma loyihalar) orqali rasmiylashtirilgan?*

❖ *O'rnatilgan hamkorlik aloqalarining ta'lim jarayoni, sifati va tashkilot rivojiga qo'shgan hissasi qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Hamkorlik shartnomalari (o'zaro anglashuv memorandumlari) reyestri yoki ro'yxati*

4.2. INDIKATOR

Tashkilotning hududiy va respublika darajasida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni rivojlantirishdagi ishtiroki va qo'shgan hissasi

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkiloti hududiy va respublika darajasida ijtimoiy, iqtisodiy sohalarni rivojlantirishga qaratilgan qaysi loyihalarda ishtirok etgan?*

❖ *Mazkur loyihalarda ta'lim tashkilotining ishtiroki (hissa qo'shishi) qanday shakllarda amalga oshirilgan?*

❖ *Ushbu loyihalarda ishtirok etishning hududiy va respublika miqyosida rivojlanishga hamda ta'lim jarayoniga ta'siri qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Loyihalar va tadbirlarda ishtirok etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar*

4.3. INDIKATOR

Madaniy-ma'rifiy yoki ilmiy tadbirlar (konferensiya, seminar, davra suhbat, festival, ko'rgazma va boshqa anjumanlar) tashkil etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotida qanday madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadbirlar (festival, ko'rgazma, anjuman va boshqalar) tashkil etilgan?*

❖ *Mazkur tadbirlarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadlar va ularning ta'lim, ilmiy faoliyat hamda tinglovchilarning rivojlanishiga qo'shgan hissasi qanday belgilangan?*

❖ *Tashkil etilgan madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadbirlarning samaradorligi va natijalari qanday tartibda baholangan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Tashkilot tomonidan madaniy-ma'rifiy yoki ilmiy tadbirlarni o'tkazish bo'yicha buyruqlar (tadbirlar dasturi va hisobotlari)*

5. MEZON: Ta'lim jarayonlarini boshqarish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha axborot tizimining mavjudligi va ushbu tizimning ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilingani

***Izoh:** Ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonlarini boshqarish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish uchun zamonaviy axborot tizimi joriy etilganligi, uning funksional imkoniyatlari baholashga qaratilgani, mazkur axborot tizimining ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilingani, ma'lumotlar almashinuvi, hisobotlarning avtomatlashtirilgani hamda shaffoflik va ishonchlilikni ta'minlash darajasi o'rganiladi.*

5.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotida o'quv jarayonlari va ta'lim sifatini boshqarishga xizmat qiluvchi raqamli axborot tizimi joriy etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonlarini boshqarish, monitoring qilish va nazoratni amalga oshirish uchun qaysi axborot tizimlari (LMS, elektron jurnal, boshqaruv platformasi va boshqalar) joriy etilgan?*

❖ *Mazkur axborot tizimlarining funksional imkoniyatlari ta'lim jarayonlarini boshqarish va nazorat qilishni qanday ta'minlaydi?*

❖ *Axborot tizimlaridan foydalanishning samaradorligi va ta'lim sifatiga ta'siri qanday mezonlar asosida monitoring qilinadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Ta'lim jarayonlarini raqamlashtirilganligini tasdiqlovchi tegishli me'yoriy hujjatlar*

✓ *Axborot tizimi funksional imkoniyatlari tavsifi (texnik pasport yoki reglament)*

5.2. INDIKATOR

Axborot tizimi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlari va boshqa tashkilotlarning axborot tizimlariga integratsiya qilingan, ma'lumotlar avtomatik almashinuvi yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Axborot tizimi tashkiliy-huquqiy bo'ysunuviga ko'ra tegishli vazirlik va idoralar hamda Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan?*

❖ *Integratsiya doirasida o'zaro ma'lumotlar almashinuvining qaysi turlari va yo'nalishlari (tinglovchilar, professor-o'qituvchilar, baholash, davomat va boshqalar) yo'lga qo'yilgan?*

❖ *Axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiya ta'lim jarayonlarini boshqarish va ta'lim sifatini nazorat qilish samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Axborot tizimlari o'rtasida integratsiyani ta'minlash bo'yicha kelishuv yoki texnik shartnoma*

✓ *Ma'lumotlar avtomatik almashinuvi to'g'risidagi texnik reglament (API, integratsiya protokollari)*

✓ *Integratsiya jarayoni amalda ekanligini tasdiqlovchi dalillar (skrinshot, log-fayllar yoki dalolatnomalar)*

5.3. INDIKATOR

Axborot tizimi foydalanuvchilar uchun qulay, ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Axborot tizimini foydalanuvchilar uchun qulay va uzluksiz ishlashini ta'minlash bo'yicha qanday chora-tadbirlar joriy etilgan?*

❖ *Axborot tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash (ma'lumotlarni himoyalash, foydalanuvchi huquqlarini boshqarish) qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Axborot xavfsizligi bo'yicha texnik himoya vositalari joriy etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar*

5.4. INDIKATOR

Axborot tizimi orqali o'quv jarayonlarini rejalashtirish, monitoring va hisobot ishlari yuritilgan, ma'lumotlar asosida yillik tahliliy hisobotlar tayyorlangan va kollegial organining yig'ilishlarida muhokama qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Axborot tizim orqali o'quv jarayonlarini rejalashtirish va monitoring qilish uchun qanday mexanizmlari joriy etilgan?*

❖ *Axborot tizimidagi mavjud ma'lumotlar asosida yillik tahliliy hisobotlar qanday tartibda va qanday davriylikda amalga oshirilgan?*

❖ *Yillik tahliliy hisobotlar qanday tartibda kollegial organining yig'ilishlarida muhokama qilindi va ular ijrosini monitoring qilish qanday amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Axborot tizimi orqali shakllantirilgan hujjatlar (dars jadvali, o'quv jurnali va boshqalar)*

✓ *Axborot tizimidan foydalanishdagi masalalar bo'yicha kollegial organ yig'ilish hujjatlari*

5.5. INDIKATOR

Axborot tizimining samaradorligi, ma'lumotlar bilan ishlash jarayonlari va integratsiya holati bo'yicha doimiy monitoring tizimi amalga oshirilgan hamda aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun zarur tuzatishlar kiritish chora-tadbirlari ko'rilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tayyorlangan tahliliy hisobotlar ta'lim tashkiloti kengashi yig'ilishlarida qanday tartibda va qanday davriylikda muhokama qilingan?*

❖ *Ta'lim tashkiloti kengashi muhokamalari jarayonida tahliliy hisobotlarda aniqlangan muammo va kamchiliklar qanday rasmiylashtirilgan?*

❖ *Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qanday chora-tadbirlar ishlab chiqilgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Axborot tizimi faoliyati bo'yicha monitoring hisobotlari*

✓ *Muammolarni bartaraf etish va tizimni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar*

6. MEZON: Ta'lim tashkilotini xalqarolashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yilgan 

Izoh: *Ta'lim tashkilotining xalqaro tashkilotlar (ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish tashkilotlari va h.k) bilan aloqalarni yo'lga qo'yilganligi, professor-*

o'qituvchilarni xorijda malaka oshirish va stajirovkasi tashkil etilganligi, o'quv jarayoniga xalqaro mutaxassislarni jalb etilishi hamda amaliy tajribalarni ta'lim tashkiloti o'quv jarayoniga tatbiq etilganligi o'rganiladi.

6.1. INDIKATOR

Xorijiy ta'lim, ilmiy va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkiloti qaysi xorijiy ta'lim va ilmiy tashkilotlar hamda nufuzli xalqaro institutlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan?*

❖ *Ushbu hamkorlik aloqalari qanday hujjatlar va mexanizmlar (memorandum, shartnoma, qo'shma dasturlar, ilmiy loyihalar) orqali rasmiylashtirilgan?*

❖ *Xalqaro hamkorlik aloqalarining ta'lim sifati, ilmiy faoliyat va ta'lim tashkilotining rivojlanishiga qo'shgan hissasi qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Xalqaro hamkorlik bo'yicha ichki me'yoriy hujjat, hamkorlik bitimlari ro'yxati, memorandumlar va shartnomalar*

6.2. INDIKATOR

Pedagoglar sohasi bo'yicha nufuzli xorijiy tashkilotlarda malaka oshirish va stajirovkalarda ishtirok etgan

Yordamchi savollar:

❖ *Pedagoglarning o'z sohalari bo'yicha yetakchi xorijiy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda malaka oshirish, tajriba almashish va stajirovka dasturlarida ishtirok etishi uchun qanday imkoniyatlar yaratilgan?*

❖ *Ushbu dasturlarda ishtirok etish jarayoni (tanlov, yuborish, moliyalashtirish va tashkiliy qo'llab-quvvatlash) qanday tartibda tashkil etilgan?*

❖ *Xorijiy malaka oshirish va stajirovka dasturlarida ishtirok etishning professor-o'qituvchilarning kasbiy rivoji va ta'lim sifati oshishiga ta'siri qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Pedagoglarni xalqaro malaka oshirish va stajirovka dasturlarida ishtirok etganligini tasdiqlovchi hujjatlar*

6.3. INDIKATOR

Ta'lim jarayoniga malakali xorijiy mutaxassislar jalb etilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Ta'lim jarayoniga tegishli sohalar bo'yicha qaysi yuqori malakaga ega xorijiy mutaxassislar jalb etilgan va ularni tanlash mezonlari qanday belgilangan?*
- ❖ *Xorijiy mutaxassislarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki (ma'ruza o'qish, seminarlar, qo'shma kurslar, maslahatlar) qanday shakllarda amalga oshirilgan?*
- ❖ *Xorijiy mutaxassislar ishtirokining ta'lim sifati va o'quv natijalariga ta'siri qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar*

6.4. INDIKATOR

Xalqaro hamkorlik orqali o'quv jarayonlari, ilmiy salohiyat va ta'lim dasturlarining rivojlanishiga erishilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Xalqaro hamkorlik doirasida o'quv jarayonlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati va ta'lim dasturlari mazmunini takomillashtirish bo'yicha qanday tashabbuslar va ishlar amalga oshirilgan?*
- ❖ *Mazkur takomillashtirishlar xalqaro hamkorlikning qaysi shakllari (qo'shma dasturlar, akademik almashinuv, qo'shma tadqiqotlar, ekspert ishtiroki) natijasida amalga oshirilgan?*
- ❖ *Xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirilgan takomillashtirishlarning ta'lim sifati va ilmiy faoliyat samaradorligiga ta'siri qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Xalqaro hamkorlik asosida o'quv jarayonlari takomillashgani bo'yicha tahliliy ma'lumot*
- ✓ *Ilmiy salohiyat bo'yicha tahliliy ma'lumot*
- ✓ *Ta'lim dasturlarining takomillashgani to'g'risida tahliliy ma'lumot*

II-bob. Ta'lim sifatini ta'minlash yo'nalishi

Izoh: Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarida ta'lim sifatini ichki baholash tizimi va uning faoliyati, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik darajasi, baholash jarayonining ochiq va shaffof tashkil etilishi, akademik halollik prinsiplarga rioya qilinishi, shuningdek, ish

beruvchilarning tinglovchilar malakasini oshirish yuzasidan bildirgan fikr-mulohazalari asosida o'quv dasturlariga kiritilgan o'zgartirishlar o'rganiladi.

7. MEZON: Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ta'lim sifatini ichki ta'minlashning yo'lga qo'yilgani

Izoh: Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarida ta'lim sifatini ichki baholash tizimi, mezonlari hamda manfaatdor tomonlar fikrini o'rganish bo'yicha so'rovnoma va tahlillar o'rganiladi.

7.1. INDIKATOR

Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi faoliyati yo'lga qo'yilgan, uning asosiy maqsad va vazifalari belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligini baholash tartibi qanday jarayonda va qaysi manfaatdor tomonlar ishtirokida ishlab chiqilgan?*

❖ *Mazkur baholash tartibida ta'lim sifati samaradorligini aniqlash uchun qanday mezonlar, indikatorlar va baholash mexanizmlari belgilangan?*

❖ *Ishlab chiqilgan baholash tartibi amaliyotga qanday joriy etilgan va uning natijalari asosida ta'lim sifatini takomillashtirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar ko'rilgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini baholash tartibini ishlab chiqishda manfaatdor tomonlar ishtirokini aks ettiruvchi hujjatlar*

7.2. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotida ta'lim sifati samaradorligini aniqlash bo'yicha tegishli mezonlar ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotida ta'lim sifati samaradorligini aniqlash bo'yicha qanday mezonlar ishlab chiqilgan?*

❖ *Ushbu ishlab chiqilgan mezonlar qanday tartibda ta'lim tashkiloti kengashida ko'rib chiqiladi va rasmiylashtiriladi?*

❖ *Ishlab chiqilgan mezonlar ta'lim sifati samaradorligi bo'yicha monitoringi qanday olib boriladi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Ta'lim sifatini baholash mezonlari*
- ✓ *Ta'lim sifati monitoringi va baholash tartibi*

7.3. INDIKATOR

Manfaatdor tomonlar fikrini o'rganish bo'yicha so'rov va tahlil ishlari tizimli amalga oshirilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari qanday o'rganilgan va umumlashtirilgan?*
- ❖ *Mazkur taklif va fikr-mulohazalar asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilgan?*
- ❖ *Ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasining ijrosi bo'yicha monitoringi qanday olib borilgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Uchrashuvlar, muhokamalar yoki forumlar o'tkazilganligi va ularda manfaatdor tomonlar ishtirok etganligi to'g'risida buyruqlar va bayonnomalar*
- ✓ *Manfaatdor tomonlar fikrini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomalar va ular asosida ishlab chiqilgan hujjatlar*

8. MEZON: Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilib borilgani va tahlil natijalari asosida takomillashtirish choralari ko'rilgani

Izoh: *Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilinishi va tahlil natijalari asosida takomillashtirish choralari ko'rilganligi, ta'lim jarayoni va boshqaruv samaradorligini baholash, aniqlangan kamchiliklar asosida sifatni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularning ijrosini ta'minlash holati baholanadi*

8.1. INDIKATOR

Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi Kengash yig'ilishlarida muhokama qilingan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Ta'lim tashkiloti kengashida ta'lim sifatini ichki ta'minlash bo'linmasi (ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi, ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi) tashkil qilish qanday tartibda ko'rilgan?*
- ❖ *Mazkur bo'linmaning maqsadlari, vazifalari va vakolatlari qanday hujjatlar bilan belgilangan?*

❖ *Ushbu tuzilmaning faoliyati ta'lim jarayonlari va ta'lim sifatini yaxshilashga qanday hissa qo'shmoqda?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Ichki sifatni ta'minlash tizimi faoliyati bo'yicha taqdim etilgan hisobotlar*
- ✓ *Ilmiy-pedagogik yoki metodik kengash yig'ilishlari bayonnomalari*

8.2. INDIKATOR

Tahlil natijalari asosida malaka oshirish tizimida aniqlangan muammolar, ularni bartaraf etish, takomillashtirish bo'yicha takliflar olingan

Yordamchi savollar:

❖ *Malaka oshirish tizimidagi muammolar qanday mexanizmlar orqali aniqlangan?*

❖ *Aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha qanday chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan?*

❖ *Muammolarni bartaraf etish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi monitoringi qanday olib boriladi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Ta'lim sifati bo'yicha tahliliy hisobot*
- ✓ *Aniqlangan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar*

8.3. INDIKATOR

Tahlillar hamda manfaatdor tomonlar tavsiyalari asosida ta'lim dasturlari va jarayonlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida qaysi muammo va kamchiliklar aniqlangan?*

❖ *Institut (markaz) kengashi muhokamalari jarayonida monitoring va tahlil natijalari bo'yicha qanday xulosalar va qarorlar qabul qilingan?*

❖ *Manfaatdor tomonlar tavsiyalari asosida ta'lim dasturlari va jarayonlariga qanday o'zgartirishlar kiritilgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Yangilangan ta'lim dasturlari, o'quv rejalari yoki modullar*
- ✓ *Ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar*

9. MEZON: Ichki baholash jarayoni o'tkazilgani, baholash natijalari asosida chora-tadbirlarning amalga oshirilgani.

Izoh: Ta'lim tashkilotida ichki baholash jarayoni tartibi va mezonlarining normativ hujjatlar asosida belgilanganligi, aniqlangan muammolar yuzasidan aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilganligi va ijro holati o'rganiladi.

9.1. INDIKATOR

Ichki baholash jarayoni ta'lim tashkilotida tasdiqlangan tartib asosida o'tkazilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Tinglovchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash bo'yicha tartib, qoidalar, mezonlar va usullar qanday hujjatlar bilan tasdiqlangan?*
- ❖ *Tinglovchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari monitoringi qanday yuritiladi?*
- ❖ *O'zlashtirish ko'rsatkichlari monitoringi asosida ta'lim tashkilotlari kengashida ko'rilgan masalalar va qarorlar?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Ichki baholashni o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom yoki tartib*
- ✓ *Ichki baholashni tashkil etish to'g'risidagi buyruq*
- ✓ *Ichki baholash hisobotlari*

9.2. INDIKATOR

Ichki baholash natijalari bo'yicha aniqlangan muammo va rivojlanish sohalari uchun aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Ichki baholash natijalari bo'yicha muammolar qanday tartibda aniqlanadi?*
- ❖ *Aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganmi?*
- ❖ *Aniqlangan muammolar yuzasidan sohalar bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib ijroga qaratilganmi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Aniqlangan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi*

9.3. INDIKATOR

Chora-tadbirlar rejasidagi bandlar belgilangan muddatlarda bajarilgan, ijro holati bo'yicha muntazam monitoring va hisobdorlik tizimi yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasidagi bandlari muddatlari va mas'ullari aniq ko'rsatilganmi?*

❖ *Chora-tadbirlar rejasidagi bandlar belgilangan muddatlarda bajarilishi monitoringi qanday shaklda olib boriladi?*

❖ *Belgilangan topshiriqlarning ijro holati bo'yicha hisobdorlik tizimi qanday tartibda yuritiladi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Chora-tadbirlar rejasi ijrosi bo'yicha monitoring jadvallari*

✓ *Ijro holati yuzasidan davriy hisobotlar*

10. MEZON: Tinglovchilar bilimini baholashning belgilangan tartibda amalga oshirilgani va uning o'quv natijalariga muvofiqligi 

Izoh: *Ta'lim tashkilotida tinglovchilar bilimini baholash tizimi, tartib va mezonlarini mavjudligi, baholash jarayonining ochiq va shaffof tarzda tashkil etilganligi hamda uning natijalari tahlil qilingan holda ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tizimli faoliyati baholanadi.*

10.1. INDIKATOR

Tinglovchilar bilimini baholash tizimi va mezonlari bo'yicha tartib va ko'rsatmalar ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tinglovchilar bilimini baholash tizimi bo'yicha qanday mezonlar asosida ichki tartib ishlab chiqilgan?*

❖ *Baholash shakllari (test, yozma ish, og'zaki so'rov, amaliy topshiriq va boshqalar) belgilab qo'yilganmi?*

❖ *Baholash mezonlari va tartibi tinglovchilarga oldindan yetkazilganmi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Tinglovchilar bilimini baholash tartibi to'g'risidagi hujjatlar*

✓ *Baholash materiallari namunasi (test, keys, amaliy topshiriq)*

10.2. INDIKATOR

Baholash tizimi ta'lim dasturlaridagi o'quv natijalari va fan (modul) maqsadlariga mos ravishda ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ O'quv reja va o'quv dasturlarni ishlab chiqishda qaysi MMR, DTS, kasbiy standartlar, malaka talablari asos qilib olindi?
- ❖ Mazkur standartlarning talablari o'quv reja va dasturlarning qaysi bo'limlarida qanday aks ettirilgan?
- ❖ O'quv dasturlarining mazmuni standartlar talablariga mosligini ta'minlash bo'yicha qanday tartib (tahlil, solishtirish, ekspertiza) amalga oshirilgan?

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Ta'lim dasturlari*
- ✓ *Baholash materiallari namunasi (test, keys, amaliy topshiriq)*

10.3. INDIKATOR

Pedagoglar baholash mezonlaridan xabardor va ularni amaliyotda qo'llay oladi

Yordamchi savollar:

- ❖ *Baholash tartibi o'quv jarayoni boshlanishidan oldin tinglovchilar va professor-o'qituvchilarga qanday yetkazilgan?*
- ❖ *Baholash tartibi bilan tinglovchilar va professor-o'qituvchilarning tanishtirilgani qanday hujjatlar yoki dalillar orqali tasdiqlangan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Pedagoglar uchun baholash tizimi bo'yicha o'quv-seminar materiallari*
- ✓ *O'tkazilgan dars tahlillari hisobotlari*

10.4. INDIKATOR

Baholash jarayonida raqamli texnologiyalar samarali qo'llaniladi hamda jarayon ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga asoslanib tashkil etilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Tinglovchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash jarayonida qaysi raqamli texnologiyalar va platformalar qo'llanilgan?*
- ❖ *Baholash jarayonida xolislik va shaffoflikni ta'minlash uchun qanday mexanizmlar (avtomatlashtirilgan baholash, ochiq mezonlar, apellyatsiya tartibi) joriy etilgan?*
- ❖ *Baholash jarayonida akademik halollikni ta'minlash va qoidabuzarliklarning oldini olish bo'yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshirilgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Elektron baholash tizimidan olingan monitoring jadvali.*
- ✓ *Ochiq ma'lumotlar (onlayn reyestr, natijalar skrinshotlari).*

10.5. INDIKATOR

Baholash natijalari bo'yicha apellyatsiya yoki qayta ko'rib chiqish mexanizmi mavjud

Yordamchi savollar:

- ❖ *Baholash jarayoni va natijalari bo'yicha tinglovchilarning shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun qanday apellyatsiya va (yoki) qayta ko'rib chiqish mexanizmi joriy etilgan?*
- ❖ *Apellyatsiya murojaatlarini qabul qilish, ko'rib chiqish va qaror qabul qilish tartibi qanday hujjatlar bilan tartibga solingan?*
- ❖ *Apellyatsiya va qayta ko'rib chiqish natijalari bo'yicha hujjatlarni yuritilishi qanday amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Apellyatsiya va baholash natijalarini qayta ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi nizom (yoki yo'riqnoma)*
- ✓ *Apellyatsiya arizalari va ularning ko'rib chiqilishi bo'yicha materiallar (arizalar nusxalari, qarorlar, bayonnomalar)*
- ✓ *Apellyatsiya natijalari bo'yicha rasmiy qarorlar*

✓ 10.6. INDIKATOR

✓ Baholash natijalari doimiy monitoring qilib borilgan hamda manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda muhokama qilingan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Baholash tizimining samaradorligi qanday tartibda va davriylikda monitoring qilingan?*
- ❖ *Monitoring natijalari bo'yicha manfaatdor tomonlar bilan muhokamalar olib borilganligi*
- ❖ *Monitoring natijalari asosida baholash tartibini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar*

✓ Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Baholash natijalari bo'yicha monitoring hisobotlari*
- ✓ *Ilmiy pedagogik yoki metodik kengash yig'ilishi bayonnomalari*

11. MEZON: Ta'lim tashkilotida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi

***Izoh:** Ta'lim tashkilotida akademik halollik qoidalarining belgilanishi va ularga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi hamda ta'lim jarayonida halollik, adolat va mas'uliyat tamoyillarini ta'minlash maqsadida ichki nazorat, monitoring va profilaktika mexanizmlari asosida amalga oshiriladigan institutsional faoliyati baholanadi.*

11.1. INDIKATOR

Akademik halollik qoidalari ta'lim tashkilotining ichki hujjatlari orqali rasman tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotida akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid qanday tartib (qoidalar) va (yoki) yo'riqnomalar mavjud va ular qaysi hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur tartib va yo'riqnomalar professor-o'qituvchilar, xodimlar va tinglovchilar uchun qanday tartibda joriy etilgan?*

❖ *Akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyat qoidalariga rioya etilishini ta'minlash va nazorat qilish qanday yuritiladi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid ichki hujjat(lar)*

11.2. INDIKATOR

Akademik halollikni ta'minlash uchun mas'ul (komissiya yoki bo'linma) belgilangan, uning vakolatlari, funksiyasi hujjatlashtirilgan hamda muntazam faoliyat yuritadi

Yordamchi savollar:

❖ *Akademik halollik qoidalarini buzish holatlarini ko'rib chiqish uchun qanday shaffof tartib va qoidalar belgilangan?*

❖ *Qoidabuzarlik holatlarini ko'rib chiqish va javobgarlik choralari belgilashda qaysi organlar (komissiya, kengash) ishtirok etadi va ularning vakolatlari qanday aniqlangan?*

❖ *Qabul qilingan qarorlar bo'yicha manfaatdor tomonlarga axborot yetkazish hamda qarorlar ijrosini ta'minlash qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ Akademik halollik komissiyasi (yoki mas'ul bo'linma)ni tashkil etish to'g'risidagi buyruq
- ✓ Komissiya yig'ilishlari bayonnomalari yoki faoliyat hisobotlari

11.3. INDIKATOR

Tinglovchilar uchun akademik halollik qoidalariga oid targ'ibot ishlari muntazam o'tkazilgan va axborot materiallari tayyorlangan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Tinglovchilar va professor-o'qituvchilar uchun akademik halollik bo'yicha qancha muddatda muntazam treninglar (seminarlar, ma'ruzalar) tashkil etilgan?*
- ❖ *Mazkur treninglarni tashkil etishning davriyligi, mazmuni va maqsadlari qanday tartibda belgilangan?*
- ❖ *O'tkazilgan treninglarning ishtirokchilar bilim va xabardorligini oshirishdagi samaradorligi qanday mezonlar asosida baholangan*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ Akademik halollik bo'yicha targ'ibot-tadbirlar rejasi
- ✓ Axborot materiallari (buklet, plakat, veb-sayt sahifasi, video)

✓ 11.4. INDIKATOR

✓ Ilmiy va o'quv ishlarida plagiat hamda soxtalik holatlarini oldini olish maqsadida elektron tekshiruv tizimi joriy etilgan, tinglovchilar va pedagog xodimlar uchun tizimdan ochiq foydalanish imkoniyati yaratilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Ilmiy va o'quv ishlarida qaysi antiplagiat tizimi joriy etilgan va uning qo'llanish tartibi qanday hujjatlar bilan belgilangan?*
- ❖ *Ilmiy ishlar va nashrlarni antiplagiat tekshiruvidan o'tkazish jarayoni qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?*
- ❖ *Antiplagiat tizimi qo'llanilishining samaradorligi va akademik halollikni ta'minlashga ta'siri qanday monitoring qilinadi?*

✓ *Asoslantiruvchi hujjat(lar):*

- ✓ *Plagiat tekshiruv natijalari (hisobotlar, skrinshotlar, reyestr)*

12. MEZON: Ish beruvchilarning malaka oshirgan tinglovchilarga oid fikr-mulohazalarining tahlil

Izoh: *Ish beruvchilarning tinglovchilar malakasi, bilim va ko'nikmalariga oid fikr-mulohazalarini tahlil etilishi hamda ushbu tahlil natijalari asosida ta'lim*

dasturlari, o'quv fanlari mazmuni va o'qitish usullarini takomillashtirish bo'yicha amaliy choralar ko'rilganligi baholanadi.

12.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotida ish beruvchilar fikrini yig'ish bo'yicha amaliyot (anketalar, intervyular, onlayn platforma) yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tinglovchilarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va o'quv jarayonidagi samaradorligi bo'yicha ish beruvchilardan fikr-mulohazalar olish uchun qanday tizim va mexanizmlar joriy etilgan?*

❖ *Ish beruvchilardan olingan fikr-mulohazalar qanday tartibda yig'iladi, umumlashtiriladi va tahlil qilinadi?*

❖ *Ish beruvchilar fikr-mulohazalari asosida ta'lim dasturlari va o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlar ko'rilgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Ish beruvchilar fikrini o'rganish tartibi to'g'risidagi ichki tartib va mezon*

✓ *Anketalar, intervyular, savolnomalar yoki onlayn platforma orqali yig'ilgan fikrlari*

12.2. INDIKATOR

Ish beruvchilar bilan muntazam hamkorlik va aloqa mexanizmlarining yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ish beruvchilar bilan muntazam hamkorlik va aloqalar qanday tartibda amalga oshiriladi?*

❖ *O'rnatilgan hamkorlik va aloqalar bo'yicha ishlar qanday mexanizmlar orqali amalga oshiradi va natijalar qanday hujjatlashtiriladi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Ish beruvchilar bilan tuzilgan hamkorlik shartnomalari va memorandumlar*

✓ *Ish beruvchilar ishtirokida o'tkazilgan uchrashuvlar, davra suhbatlari va yig'ilishlar bayonnomalari*

12.3. INDIKATOR

Ish beruvchilar fikrlari asosida ta'lim dasturlariga o'zgartirishlar kiritilishi imkoniyati mavjud

Yordamchi savollar:

- ❖ *Tinglovchilarning ta'lim dasturlari bo'yicha natijalari va ish beruvchilarning fikr-mulohazalari qanday tartibda tahlil qilingan?*
- ❖ *Mazkur tahlillar asosida o'quv jarayonini takomillashtirishda va qayta ko'rib chiqishda qanday o'zgarishlar kiritilgan?*
- ❖ *Yangilangan o'quv jarayoni bo'yicha ma'lumotlar jamoatchilikka qanday shaklda e'lon qilingan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Yangilangan ta'lim dasturlari yoki modullar*
- ✓ *Ta'lim dasturlarini takomillashtirish bo'yicha fikr-mulohazalar va ishlab chiqilgan takliflar*

III-bob. Tinglovchilar faoliyati yo'nalishi

Izoh: *Tinglovchilarni qabul qilish, o'qishdan chetlashtirish va qayta tiklash jarayonlarini qonunchilik talablari asosida samarali tashkil etilishi, qabul parametrlarining ta'lim tashkiloti resurslari va imkoniyatlariga mosligi o'rganiladi va faoliyati baholanadi.*

13. MEZON: Qabul parametrlarining ta'lim tashkiloti resurslari va imkoniyatlariga mosligi

Izoh: *Ta'lim tashkilotining qabul parametrlarini mavjud professor-o'qituvchilar salohiyati, moddiy-texnik bazasi, o'quv xonalari va laboratoriyalar quvvati hamda moliyaviy resurslari bilan mutanosib ravishda belgilaganligi, shuningdek, qabul jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur resurslarni moliyalashtirish kafolati ta'minlanganlik darajasi baholanadi.*

13.1. INDIKATOR

Tinglovchilarni o'qishga qabul qilishda ta'lim tashkilotining quvvati, bino va inshootlar sig'imi, moliyaviy resurslari hamda moddiy-texnik bazasi imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilangan*

Yordamchi savollar:

- ❖ *Tinglovchilarni o'qishga qabul qilishda (tinglovchilar soni, yo'nalishlar kesimidagi kvotalar va boshqalar)ni belgilashda ta'lim tashkilotining auditoriyalari, laboratoriyalari, amaliyot bazalari va texnik jihozlanganlik darajasi qanday?*
- ❖ *Qabul parametrlari ta'lim dasturlarida belgilangan maqsad va kutilgan o'quv natijalarini amalga oshirish imkonini beradigan infratuzilma quvvatiga egami?*

Belgilangan qabul parametrlari infratuzilma quvvatiga mosligini monitoring qilish va zarur hollarda qayta ko'rib chiqish qanday amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Ta'lim tashkilotining qabul quvvati hisob-kitobi (binolar, o'quv xonalari, laboratoriyalar kesimida)*
- ✓ *Qabul rejasini tasdiqlash to'g'risidagi buyruq yoki vakolatli organ qarori*
- ✓ *Moddiy-texnik baza va moliyaviy imkoniyatlar bo'yicha tahliliy ma'lumot*

13.2. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotining o'qituvchilari va tinglovchilari sonining bir nafar o'qituvchi hisobiga nisbatining cheklangan normativlari mavjud

Yordamchi savollar:

- ❖ *Tinglovchilar sonini belgilashda bir nafar o'qituvchiga to'g'ri keladigan maksimal yuklama normativlari (auditoriya mashg'ulotlari, amaliyot, mustaqil ishlarni boshqarish) qanday hisobga olingan?*
- ❖ *Ta'lim yo'nalishlari va fanlar kesimida o'qituvchilar tarkibining soni, malakasi va mutaxassisligi tinglovchilar soniga mutanosib ravishda qanday taqsimlangan?*
- ❖ *Mavjud o'qituvchilar va tinglovchilar nisbati ta'lim dasturlarida belgilangan maqsadlar hamda kutilgan o'quv natijalariga erishishni ta'minlash imkonini qanchalik beradi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Pedagog kadrlar va tinglovchilar soni to'g'risidagi statistik ma'lumot*

13.3. INDIKATOR

Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan didaktik imkoniyatlarning mavjudligi

Yordamchi savollar:

- ❖ *Ta'lim dasturlarida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan o'quv modullari, amaliy mashg'ulotlar, loyihalar va tadqiqot faoliyati qanday ko'zda tutilgan?*
- ❖ *Fan va ishlab chiqarishdagi zamonaviy yutuqlarni o'quv jarayoniga joriy etish uchun o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati, malaka oshirishi hamda ishlab chiqarish bilan aloqalari qanday ta'minlangan?*
- ❖ *Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga oid didaktik imkoniyatlarning samaradorligini baholash, monitoring qilish va takomillashtirish qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Ta'lim dasturlari*
- ✓ *Amaliy mashg'ulotlar, stajirovka yoki ish joyida o'qitish dasturlari*

13.4. INDIKATOR

Tinglovchilarni o'qishga qabul qilish parametrlarining monitoringi olib borilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Tinglovchilarni o'qishga qabul qilish bo'yicha belgilangan parametrlar (soni, toifasi, talablari) aniq ko'rsatib qo'yilganmi?*
- ❖ *Qabul jarayonini tartibga soluvchi ichki me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilganligi*
- ❖ *Tinglovchilarning yo'nalishlar, hududlar yoki toifalar bo'yicha taqsimoti tahlil qilinadimi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Qabul ko'rsatkichlari bo'yicha monitoring hisobotlari*

✓ 13.5. INDIKATOR

- ✓ **Monitoring natijalari asosida qabul rejasiga zarur o'zgartirishlar kiritiladi**

Yordamchi savollar:

- ✓ *Qabul rejalarining bajarilish holati bo'yicha har yili qanday tartibda tahlil amalga oshirilgan?*
- ✓ *Tahlil jarayonida qabul rejalarining samaradorligini baholash uchun qanday mezon va ko'rsatkichlardan foydalanilgan?*
- ✓ *O'tkazilgan tahlillar natijalari asosida qabul rejalariga qanday zarur o'zgartirishlar kiritilgan va ularning ta'siri qanday baholangan?*

✓ Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Qabul rejasiga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi buyruq yoki qarorlar*
- ✓ *Yangilangan qabul bo'yicha buyruq*

14. MEZON: Tinglovchilarni o'qishga qabul qilish belgilangan tartib-qoidalar asosida to'g'ri tashkil qilingani

Izoh: *Ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablarining aniq belgilanganligi, o'qishga qabul qilish jarayonining ochiq va shaffof tarzda tashkil etilganligi hamda belgilangan tartibga rioya etilganligi o'rganiladi.*

14.1. INDIKATOR

Tinglovchilarni o'qishga qabul qilish tartib-qoidalarini, mezonlari va komissiya faoliyati ta'lim tashkilotining ichki hujjatlarida belgilangan bo'lib, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi

Yordamchi savollar:

❖ *Kursga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, baholash usullari va qabul komissiyasining faoliyat ko'rsatish tartibi qanday normativ-huquqiy va ichki hujjatlar bilan belgilangan?*

❖ *Mazkur qabul tartibi va mezonlari talabgorlar uchun ochiq, shaffof va tushunarli bo'lishi qanday ta'minlangan?*

❖ *Qabul jarayonining belgilangan tartib, mezon va baholash usullariga muvofiqligi qanday monitoringi yuritiladi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Tinglovchilarni o'qishga qabul qilish tartib-qoidalarini belgilovchi ichki me'yoriy hujjat*

14.2. INDIKATOR

Korrupsiyaning oldini olish, manfaatlar to'qnashuvi xavfini kamaytirish va baholashning xolisligini ta'minlovchi raqamlashtirilgan tizim joriy etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Korrupsiyaning oldini olish, manfaatlar to'qnashuvi xavfini kamaytirish va baholashning xolisligini ta'minlash maqsadida qanday raqamlashtirilgan tizim joriy etilgan?*

❖ *Mazkur raqamlashtirilgan tizim orqali manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya xavflarini aniqlash hamda baholash jarayonining shaffofligini ta'minlash qanday amalga oshiriladi?*

❖ *Raqamlashtirilgan tizimdan foydalanishning samaradorligi va baholash jarayonlarining xolisligiga ta'siri qanday mezonlar asosida tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar (uchrashuvlar, davra suhbatlari)*

✓ *Qabul jarayonini raqamli platforma orqali amalga oshirilganligini tasdiqlovchi dalillar (skrinshot, loglar)*

14.3. INDIKATOR

Tinglovchilar hujjatlarini qabul qilish va tekshirish bo'yicha aniq reglamentlar, mas'ullar va muddatlar belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ Qabul jarayonida tinglovchilar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha qanday sharoitlar yaratilgan?

❖ Qabul jarayonining barcha bosqichlari (hujjat topshirish, kirish imtihonlarini o'tkazish, natijalarni va tanlov yakunlarini e'lon qilish) qanday tartibda ochiq va shaffof amalga oshirilgan?

❖ Qabul jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash bo'yicha monitoringi qanday yuritiladi?

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ Tinglovchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni qabul qilish va tekshirish tartibi to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar

✓ **14.4. INDIKATOR**

✓ Tinglovchilarni o'qishga qabul qilish jarayonining doimiy monitoringi amalga oshirilgan

Yordamchi savollar:

✓ Qabul jarayoni qanday tartibda va davriylikda ichki nazorat hamda tahlildan o'tkazilgan?

✓ Tahlil natijalarini baholash uchun qanday mezonlar va ko'rsatkichlardan foydalanilgan?

✓ Qabul jarayonini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlar ko'rilgan?

✓ **Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ Tinglovchilarni qabuli natijalari bo'yicha monitoring hisobotlari (yarim yillik va yillik)

IV-bob. O'quv jarayonini tashkil etish yo'nalishi

Izoh: Ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash, professor-o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari belgilangan talablar asosida yuritilishi, o'quv yuklamalari normativ talablarga muvofiq taqsimlanishi, ta'lim dasturlari iqtisodiyot va soha ehtiyojlaridan kelib chiqib yangilanganligi hamda dars jarayoni tahlil qilinib natijalari muhokama etiladigan faoliyat baholanadi.

15. MEZON: O'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarining ishlab chiqilgani va belgilangan tartibda tasdiqlangani

Izoh: Ta'lim tashkilotida malaka talablarining davlat ta'lim standartlari yoki xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilganligi, o'quv rejaning tegishli milliy yoki xalqaro talablarga muvofiq ishlab chiqilganligi, ta'lim dasturlari malaka talablari va o'quv rejaga muvofiq tayyorlanib, belgilangan tartibda tasdiqlanganligi hamda o'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarining professor-o'qituvchilar, tinglovchilar va manfaatdor tomonlar uchun ochiq holda veb-sayt yoki axborot tizimi orqali e'lon qilinganligi baholanadi.

15.1. INDIKATOR

Davlat ta'lim talablari (malaka talablari) asosida o'quv reja va o'quv dasturlari ishlab chiqilgan va tasdiqlangan*

Yordamchi savollar:

- ❖ O'quv reja va dasturlarni ishlab chiqish jarayonida ish beruvchilar, tinglovchilar va soha mutaxassislari jalb qilinganmi?
- ❖ Ular tomonidan bildirgan taklif va tavsiyalar inobatga olinganmi?
- ❖ Takliflar asosida o'quv reja va dasturlarning qaysi bandlariga o'zgartish va qo'shimlar kiritildi?

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ Davlat ta'lim talablari (malaka talablar) asosida ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlar

15.2. INDIKATOR

Ishchi o'quv reja va dasturlar ta'lim dasturlariga mos holatda ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ Ishchi o'quv reja tasdiqlangan o'quv reja va ta'lim dasturlarida belgilangan fan(modul)lar asosida ishlab chiqilganmi?
- ❖ Ishchi o'quv rejadagi fan(modul)larning nomi va soatlar taqsimoti ta'lim dasturlariga qanchalik moslashtirilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Tasdiqlangan o'quv rejalar va fan (modul) dasturlari

15.3. INDIKATOR

Dars jadvallari o'quv rejadagi kredit/soat hajmi, fan (modul)lar ketma-ketligi bo'yicha ishlab chiqilib, tasdiqlangan hamda o'quv kursi boshlanishidan oldin e'lon qilingan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Dars jadvallarini tuzishda o'quv rejada belgilangan fan (modul)lar bo'yicha kredit va soat hajmi to'liq inobatga olinganmi?*
- ❖ *Dars jadvallari ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi jarayonida fanlarning nazariy va amaliy xususiyatlari hamda mantiqiy ketma-ketligi ta'minlanganmi?*
- ❖ *Tasdiqlangan dars jadvallari o'quv kursi boshlanishidan oldin tinglovchilar va o'qituvchilar uchun ochiq va qulay shaklda (rasmiy veb-sayt, axborot tizimi, e'lonlar taxtasi va boshqalar) qanday e'lon qilingan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *O'quv reja asosida shakllantirilgan va tasdiqlangan dars jadvallari*
- ✓ *Dars jadvallarining o'quv kursi boshlanishidan oldin e'lon qilinganligini tasdiqlovchi dalillar (veb-sayt yoki axborot tizimi skrinshoti)*

15.4. INDIKATOR

Ma'ruza, amaliy, laboratoriya, seminar-trening, ko'chma mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim bo'yicha haftalik yuklama taqsimoti hujjatlashtirilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Har bir fan (modul) bo'yicha ma'ruza, amaliy, laboratoriya, seminar-trening, ko'chma mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim turlarining haftalik yuklama hajmi qanday hujjatlarda aks ettirilgan?*
- ❖ *Haftalik yuklama taqsimoti o'quv reja va ishchi o'quv dasturlarida belgilangan kredit/soat hajmlariga qanchalik mos?*
- ❖ *Nazariy va amaliy mashg'ulotlar hamda mustaqil ta'lim o'rtasidagi nisbat ta'lim dasturlarida ko'zda tutilgan maqsadlar va kutilgan o'quv natijalariga qanday moslashtirilgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Tasdiqlangan o'quv rejalar va fan (modul) dasturlari*

15.5. INDIKATOR

O'quv jarayonini rejalashtirishga oid asosiy hujjatlar (dars jadvallari, imtihonlar jadvali va boshqalar) tinglovchi, pedagog va manfaatdor tomonlar uchun ochiq holda veb-sayt yoki axborot tizimi orqali e'lon qilingan

Yordamchi savollar:

- ❖ *O'quv jarayoni jadvali (dars va imtihonlar jadvallari hamda boshqalar) qanday hujjat asosida ishlab chiqilgan?*
- ❖ *O'quv jarayoni jadvali o'quv kursi boshlanishidan oldin tinglovchilar va professor-o'qituvchilarga qanday shaklda e'lon qilingan?*

❖ O'quv jarayoni jadvaliga rioya etilishi va zarur hollarda unga o'zgartirishlar kiritish jarayoni qanday asosda amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ O'quv jarayoni bo'yicha tasdiqlangan dars va imtihon jadvallari ta'lim tashkilotining axborot tizimi yoki rasmiy veb-sayt orqali e'lon qilingan (skrinshotlar yoki havolalar)

16. MEZON: Professor-o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari belgilangan talab asosida ishlab chiqilgani, tasdiqlangani va yuritilishi 

Izoh: Professor-o'qituvchilarning ta'lim dasturlari asosida fanlar (modullar) kesimida ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy materiallar va ularni rasmiylashtirish holati o'rganiladi.

16.1. INDIKATOR

O'quv dasturlarda fan (modul)ning maqsad va vazifalari, o'quv natijalari, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, ta'lim texnologiyalari aniq belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ O'quv dasturlarida fan (modul)ning maqsadlari va vazifalari hamda kutilgan o'quv natijalari qanday tartibda belgilangan va rasmiylashtirilgan?

❖ Majmualarda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, baholash mezonlari va usullari hamda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari qanday aniqlikda ko'rsatilgan?

❖ O'quv dasturlarining (majmualarning) mazmuni ta'lim dasturlari maqsadlariga va kutilgan o'quv natijalariga muvofiqligi qanday mexanizmlar orqali monitoring va baholanadi?

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ Tasdiqlangan fan (modul) o'quv dasturlar

16.2. INDIKATOR

Har bir fan (modul)ning o'quv dasturi davlat ta'lim talablari va ta'lim dasturining maqsad va natijalariga mos holda ishlab chiqilgan*

Yordamchi savollar:

❖ Fan(modul)larning o'quv dasturlari mazmuni va hajmi davlat ta'lim talablari va ta'lim dasturlariga moslik darajasi qanday?

❖ Fan(modul)larning ta'lim dasturidagi jamlanmasida mutaxassislik yo'nalishidagi foiz ko'rsatkichlari qanday?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Davlat ta'lim talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va tasdiqlangan fan (modul) o'quv dasturlar

16.3. INDIKATOR

O'quv-me'yoriy hujjatlar pedagoglarga dars mashg'ulotlari boshlanishidan oldin yetkazilgan va tinglovchilar uchun ham ochiq holda taqdim etilgan

Yordamchi savollar:

❖ O'quv-me'yoriy hujjatlar (o'quv reja, ishchi o'quv dasturlari, dars jadvallari, baholash mezonlari va boshqa tegishli hujjatlar) pedagoglarga dars mashg'ulotlari boshlanishidan oldin qanday tartibda va vositalar orqali yetkazilgan?

❖ O'quv-me'yoriy hujjatlar tinglovchilarga ochiq va qulay shaklda taqdim etilishi (axborot tizimi, rasmiy veb-sayt, elektron platformalar, axborot stendlari va boshqalar) qanday ta'minlangan?

❖ O'quv-me'yoriy hujjatlarning dolzarbligi, to'liqligi va tushunariligi pedagoglar hamda tinglovchilar tomonidan qanday tekshiriladi va baholanadi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ O'quv dasturlari ta'lim tashkilotining axborot tizimi yoki rasmiy veb-sayt orqali joylashtirilganligini tasdiqlovchi dalillar (skrinshotlar yoki havolalar)

16.4. INDIKATOR

O'quv-me'yoriy hujjatlarning sifati, mazmuni va amaliy ahamiyati muntazam ravishda tegishli bo'limlar tomonidan nazorati amalga oshirib boriladi

Yordamchi savollar:

❖ O'quv-me'yoriy hujjatlarning (o'quv reja, ishchi o'quv dasturlari, dars jadvallari, baholash mezonlari va boshqa hujjatlar) sifati va mazmunini nazorat qilish uchun qaysi bo'limlar tomonidan amalga oshiriladi?

❖ Hujjatlarning amaliy ahamiyati, ya'ni ta'lim jarayonida qo'llanilishi va kutilgan o'quv natijalariga erishishga xizmat qilishi qanday baholanadi?

❖ Aniqlangan kamchiliklar, nomuvofiqliklar yoki eskirgan hujjatlar aniqlanganida ularni tuzatish va yangilash mexanizmi qanday ishlaydi?

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ Monitoring bo'lim yoki ta'lim sifati bo'limi tomonidan tayyorlangan monitoring hisobotlari

17. MEZON: Professor-o'qituvchilarga o'quv yuklamalarining belgilangan normalarga muvofiq ajratilgani

Izoh: O'quv yuklamalari tegishli me'yorlar va kengash qarorlari asosida shakllantirilishi, adolatli taqsimlanishi, o'z vaqtida yetkazilishi va muntazam nazorat qilinishi, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyat bilan uyg'unligi baholanadi.

17.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilarining o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-metodik va ma'naviy-ma'rifiy ish turlari hajmini belgilash qoidalari mavjud va tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Professor-o'qituvchilarning o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-metodik va ma'naviy-ma'rifiy ish turlari hajmini belgilovchi qoidalar qaysi hujjatlarda ko'rsatilgan?*

❖ *Mazkur qoidalar asosida ish yuklamasi belgilanishi va tasdiqlanishi jarayonida rahbariyat, bo'lim mudirlari va metodik kengashlarning roli qanday?*

❖ *Belgilangan qoidalar amalda professor-o'qituvchilarning ish faoliyatiga mos ravishda qo'llanilayotganini monitoring qilish va nazorat qilish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Pedagog (professor-o'qituvchi) ish yuklamasini ishlab chiqish tartibi to'g'risidagi hujjatlar*

✓ *Pedagog (professor-o'qituvchi)lar shaxsiy yillik ish rejasi*

17.2. INDIKATOR

Professor-o'qituvchilar mutaxassisligi o'qitiladigan fanlar (modullar) bilan to'liq mos keladi yoki tegishli yo'nalishi bo'yicha amaliy ish tajribasiga ega

Yordamchi savollar:

❖ *Har bir professor-o'qituvchining o'qitadigan fan (modul)lari ularning asosiy mutaxassisligi bilan qanchalik mos keladi?*

❖ *O'qituvchilarning mutaxassisligi va amaliy ish tajribasini baholash va monitoring qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?*

❖ *Nomuvofiqliklar aniqlangan hollarda (masalan, o'qituvchi fan bilan mutaxassisligi mos kelmasa) ularni bartaraf etish yoki qo'shimcha tayyorgarlikni ta'minlash mexanizmlari qanday ishlaydi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Pedagoglar tarkibi ro'yxati (mutaxassisligi, fan/modullar kesimida)*

17.3. INDIKATOR

O'quv yuklama pedagoglar o'rtasida ularning ish stavkasi va zaruratga ko'ra ilmiy daraja va ilmiy unvonlardan kelib chiqib mutanosib ravishda taqsimlangan.

Yordamchi savollar:

❖ *Professor-o'qituvchilar o'rtasida o'quv (ish) yuklamalarini taqsimlashda ularning mutaxassisligi, ilmiy darajasi va ilmiy unvonlari qanday mezonlar asosida inobatga olingan?*

❖ *O'quv (ish) yuklamalarining mutanosib taqsimlanganligini ta'minlash uchun qanday tartib va mexanizmlar qo'llanilgan?*

❖ *O'quv (ish) yuklamalari taqsimotining adolatliligi va muvofiqligi qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Pedagoglarga o'quv yuklama taqsimoti jadvali (stavka, fan/modul, soat/kreditlar kesimida)*

✓ 17.4. INDIKATOR

✓ O'quv yuklama to'g'risidagi ma'lumotlar o'quv yili boshlanishidan avval o'z vaqtida pedagoglarga tegishli tartibda yetkazilgan

Yordamchi savollar:

✓ *O'quv yuklamasi to'g'risidagi ma'lumotlar pedagoglarga qanday yetkazilgan?*

✓ *O'quv yuklamasi ma'lumotlari pedagoglarga o'quv yili boshlanishidan oldin qancha vaqtda yetkazilishi belgilangan?*

✓ *Belgilangan yuklama hajmidan norozi professor-o'qituvchilar murojaatlarini ko'rib chiqish tizimi qanday ishlaydi?*

✓ *Asoslantiruvchi hujjat(lar):*

✓ *Pedagoglarni o'quv yuklamasi bilan tanishtirilganligi to'g'risida reyestri*

✓ *Elektron axborot tizimi/LMS orqali yuklama yetkazilganligini tasdiqlovchi dalillar (skrinshot/jurnal)*

✓ 17.5. INDIKATOR

✓ O'quv yuklama taqsimoti barcha pedagoglar uchun ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilgan

Yordamchi savollar:

✓ O'quv (ish) yuklamalarini taqsimlash jarayoni barcha professor-o'qituvchilar uchun ochiq va shaffof bo'lishi qanday mexanizmlar orqali ta'minlangan?

✓ O'quv (ish) yuklamalari taqsimoti bo'yicha ma'lumotlar professor-o'qituvchilarga qanday tartibda yetkazilgan?

✓ Yuklama taqsimotining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda kelib chiqadigan e'tirozlarni ko'rib chiqish qanday amalga oshiriladi?

✓ **Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ O'quv yuklama taqsimotining jadvali e'lon qilinganligini tasdiqlovchi dalillar (veb/axborot tizimi/e'lonlar doskasi)

✓ O'quv yuklama taqsimoti bo'yicha ilmiy pedagogik yoki metodik kengash bayonnomasi

18. MEZON: Ta'lim dasturlarini iqtisodiyot, sanoat va soha ehtiyojlaridan kelib chiqib, takomillashtirilgani hamda mazmunining yangilangani 

Izoh: Ta'lim dasturlari mehnat bozori, iqtisodiyot va soha talablariga mos holda qayta ko'rib chiqilishi, yangilanishi va takomillashtirilishi, shuningdek, amaliyot bilan bog'liqligini ta'minlash darajasi baholanadi.

18.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturlarini takomillashtirish jarayonida ish beruvchi va buyurtmachilar, soha mutaxassislari fikr-mulohazalari o'rganilgan

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturlarini takomillashtirish jarayonida qaysi manfaatdor tomonlarning (ish beruvchilar, tinglovchilar, bitiruvchilar, professor-o'qituvchilar va boshqalar) taklif va fikr-mulohazalari o'rganiladimi?

❖ O'rganilgan taklif va fikr-mulohazalarni tahlil qilish va ustuvor yo'nalishlarni belgilash qanday tartibda amalga oshirilgan?

❖ Manfaatdor tomonlar fikrlari asosida ta'lim dasturlariga qanday o'zgartish qo'shimchalar kiritilgan?

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ Ish beruvchilar, buyurtmachilar va soha mutaxassislari fikrini o'rganish bo'yicha anketalar, intervyu yoki davra suhbatlari materiallari

✓ Ta'lim dasturlarini takomillashtirish bo'yicha ishchi guruhlar

18.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturlari mehnat bozori, soha ehtiyojlari va iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturlarini mehnat bozori va iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari hamda soha ehtiyojlariga muvofiq qayta ko'rib chiqish qanday tartibda va qanday davriylikda amalga oshiriladi?*

❖ *Ta'lim dasturlarini yangilash jarayonida qaysi axborot manbalari va manfaatdor tomonlar (ish beruvchilar, soha mutaxassislari, bitiruvchilar va boshqalar) fikrlari inobatga olingan?*

❖ *Qayta ko'rib chiqilgan ta'lim dasturlarining mehnat bozori ehtiyojlariga mosligi va samaradorligi qanday baholanadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Mehnat bozori va soha ehtiyojlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar*

18.3. INDIKATOR

Dastur mazmuniga raqamli texnologiyalar, zamonaviy kompetensiyalar va innovatsion yondashuvlar integratsiya qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturlari mazmuniga qaysi raqamli texnologiyalar, zamonaviy kompetensiyalar va innovatsion yondashuvlar joriy etilgan?*

❖ *Ta'lim dasturlari zamonaviy kompetensiyalar (raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish, jamoada ishlash va boshqalar) aniq belgilanganmi?*

❖ *Raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning ta'lim dasturlariga integratsiyasining samaradorligi qanday monitoring va baholash mexanizmlari orqali aniqlanadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Ta'lim dasturlarida raqamli kompetensiyalar, soft skills va innovatsion modullar mavjudligi*

18.4. INDIKATOR

Ta'lim dasturlariga kiritilgan o'zgarishlar tinglovchilar, pedagoglar va ish beruvchilarga ochiq va shaffof tarzda yetkazilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ Ta'lim dasturlariga kiritilgan o'zgartirishlar qaysi manfaatdor tomonlarga (tinglovchilar, professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar va boshqalar) yetkazilgan?
- ❖ Mazkur o'zgartirishlarni manfaatdor tomonlarga ochiq va shaffof tarzda yetkazish qanday shakl orqali amalga oshirilgan?
- ❖ Ta'lim dasturlaridagi o'zgartirishlar bo'yicha manfaatdor tomonlardan kelib tushgan savol va fikr-mulohazalarni qabul qilish va ko'rib chiqish qanday mexanizmlar orqali tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ Yangilangan ta'lim dasturlarini ta'lim tashkilotining rasmiy veb-sayti yoki axborot tizimi orqali e'lon qilinganligini tasdiqlovchi dalillar (skrinshotlar yoki havolalar)

19. MEZON: Ta'lim tashkilotida dars tahlillarining olib borilgani va natijalarining muhokama qilinishi 🚫

Izoh: Darslarning samaradorligini baholash, ta'lim jarayonini takomillashtirish va o'qitish sifatini oshirish maqsadida muntazam dars tahlillari o'tkazilishi, natijalar muhokama qilinishi hamda aniqlangan muammolarni bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilganligi baholanadi

19.1. INDIKATOR

Dars tahlillarini o'tkazish tartibi, mezonlari va baholash ko'rsatkichlari ichki hujjatlarda belgilangan

Yordamchi savollar:

- ❖ Dars tahlillarini o'tkazish tartibi, mezonlari va baholash ko'rsatkichlari qaysi ichki hujjatlar bilan belgilangan va tasdiqlangan?
- ❖ Mazkur dars tahlili mezonlari va baholash ko'rsatkichlari ta'lim sifatini oshirish maqsadlariga qanday moslashtirilgan?
- ❖ Dars tahlillarini o'tkazish tartibi va belgilangan mezonlarga rioya etilishi qanday monitoring qilinadi?

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ Dars tahlillarini o'tkazish bo'yicha reja-grafik
- ✓ Dars tahlili mezonlari va baholash ko'rsatkichlari jadvali

19.2. INDIKATOR

Dars tahlillari o'tkazish reja-grafigi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Rahbar kadrlar va professor-o'qituvchilar tomonidan dars tahlillari qanday reja-grafik asosida va qanday davriylikda amalga oshirilgan?*
- ❖ *Dars tahlillari jarayonida belgilangan mezonlar va baholash ko'rsatkichlariga rioya etilishi qanday ta'minlangan?*
- ❖ *Dars tahlillari natijalari asosida o'qitish sifatini yaxshilash bo'yicha qanday aniq tavsiyalar va chora-tadbirlar belgilangan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Dars tahlillarini o'tkazish bo'yicha tasdiqlangan yillik reja-grafigi*

19.3. INDIKATOR

Dars tahlillari belgilangan reja asosida muntazam amalga oshiriladi

Yordamchi savollar:

- ❖ *Dars tahlillari qancha muddatda va qanday shaklda amalga oshiriladi?*
- ❖ *Dars tahlillari jarayonida pedagoglar faoliyati va o'quv jarayoni qanday mezonlar asosida baholanadi?*
- ❖ *Dars tahlillari natijalari asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish va o'quv sifatini yaxshilash qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *O'tkazilgan dars tahlillari*

19.4. INDIKATOR

Dars tahlillari natijalari kafedra, fakultet yoki tegishli bo'linma yig'ilishlarida muhokama qilinadi

Yordamchi savollar:

- ❖ *Dars tahlillari natijalari qaysi tarkibiy bo'linmalar (kafedra, bo'lim va boshqalar) yig'ilishlarida va qanday davriylikda muhokama qilingan?*
- ❖ *Yig'ilishlarda dars tahlillari natijalari bo'yicha qanday xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan?*
- ❖ *Muhokamalar natijasida belgilangan tavsiyalar va chora-tadbirlarning ijrosi qanday amalga oshirilgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Kafedra / bo'linma yig'ilishlari bayonnomalari*

19.5. INDIKATOR

Aniqlangan kamchiliklar va takomillashtirish imkoniyatlari bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi

Yordamchi savollar:

❖ *Dars tahlillari jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklar qanday tartibda qayd etilgan va tizimlashtirilgan?*

❖ *Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha metodik tavsiyalar qanday asosda va kimlar ishtirokida ishlab chiqilgan?*

❖ *Ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi va samaradorligi qanday monitoring qilinadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Dars tahlillari natijalari asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar*

V-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Izoh: *Ta'lim tashkilotining kadrlar salohiyati, professor-o'qituvchilar va rahbar xodimlarning malakasi, ilmiy darajasi, kasbiy rivojlanishi hamda faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan faoliyat baholanadi*

20. MEZON: Ta'lim tashkilotida belgilangan talablar va me'yorlarga muvofiq ilmiy salohiyatga ega pedagog kadrlarning mavjudligi

Izoh: *Ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejada belgilangan modullarga mos kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlashga qaratilgan aniq rejaning mavjudligi, unda kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, tayyorlash va jalb etish chora-tadbirlarining belgilanganligi o'rganiladi.*

20.1. INDIKATOR

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga sohaning yetuk professor-o'qituvchilari hamda tajribali mutaxassisleri jalb qilingan*

Yordamchi savollar:

❖ *Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini o'tkazishda sohaning yetuk professor-o'qituvchilari va tajribali mutaxassislar qanday tanlanadi va jalb qilinadi?*

❖ *Tajribali mutaxassislarni pedagogik faoliyat yuritishi uchun qanday normativ huquqiy hujjatlar asos bo'ladi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga jalb etilgan pedagoglar va mutaxassislar ro'yxati*
- ✓ *Pedagoglar va mutaxassislarning ish tajribasini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari*

20.2. INDIKATOR

Har bir qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlaridan kelib chiqib yetarlicha ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega pedagoglar jalb qilingan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Har bir yo'nalish bo'yicha ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega bo'lgan pedagoglarni jalb qilishning tartibi ishlab chiqilganmi?*
- ❖ *Qayta tayyorlash va malaka oshirish tashkilotida faoliyat yuritayotgan pedagog xosimlarning ilmiy salohiyat ko'rsatkichlari qanday?*
- ❖ *Jalb qilingan pedagoglar va ularning ilmiy salohiyatiga oid ma'lumotlar qayd etilgan hujjatlar va hisobotlar qanday shakllantirilgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Pedagog kadrlar tarkibi to'g'risidagi ma'lumot (jadval shaklida)*
- ✓ *Ilmiy daraja va ilmiy unvonni tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari*

20.3. INDIKATOR

Pedagog kadrlar ilmiy-tadqiqot faoliyatida faol ishtirok etadi, ularning ilmiy ishlari va natijalari doimiy tahlil qilinadi

Yordamchi savollar:

- ❖ *Professor-o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatida ishtiroki (ilmiy loyihalar, grantlar, maqolalar, konferensiyalar va boshqalar) qanday tartibda tashkil etilgan va rag'batlantirilgan?*
- ❖ *Professor-o'qituvchilarning ilmiy ishlari va natijalarini (nashrlar, iqtiboslar, patentlar, loyiha natijalari) tahlil qilish va ko'rsatkichlar tahlili qanday amalga oshirilgan?*
- ❖ *Ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'yicha o'tkazilgan tahlillar natijalari asosida ilmiy faoliyatni rivojlantirish va samaradorligini oshirish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlar ko'rilgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Ilmiy ishlar va maqolalar ro'yxati*

21. MEZON: Ta'lim tashkilotida pedagog kadrlarning mutaxassisligi (ixtisosligi) va faoliyat yo'nalishlari dars o'tadigan fan(lar)ga mosligi 

Izoh: Ta'lim jarayonida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, ilmiy-tadqiqot yo'nalishi va amaliy tajribasi ular o'qitadigan fanlar mazmuniga mosligi o'rganiladi.

21.1. INDIKATOR

Pedagoglarning o'qitayotgan fanlari bo'yicha tegishli oliy ma'lumoti, ixtisosligi va kasbiy tayyorgarligi mavjud

(ta'lim dasturi doirasidagi asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar soni ta'lim dasturi doirasidagi barcha professor-o'qituvchilar soniga nisbatan kamida 70 foizni tashkil etadi)

(Bunda yangi ta'lim dasturi uchun professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha aniq reja taqdim etilgan taqdirda professor-o'qituvchilar bilan amalda ta'minlanish talab etilmaydi)

Yordamchi savollar:

❖ *Professor-o'qituvchilarning ular tomonidan o'qitiladigan fanlar (modullar) bo'yicha tegishli oliy ma'lumoti, mutaxassisligi (ixtisosligi) va kasbiy tayyorgarligi qanday hujjatlar asosida tasdiqlangan?*

❖ *Fanlar (modullar)ni o'qitishga professor-o'qituvchilarni biriktirishda ularning mutaxassisligi va kasbiy tayyorgarligi qanday mezonlar asosida hisobga olingan?*

❖ *Qayta tayyorlash va malaka oshirish tashkilotlari Professor-o'qituvchilari va xodimlarini malaka oshirish holati qanday?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Pedagog kadrlarning tarkibi to'g'risida ma'lumot (jadval)*

21.2. INDIKATOR

Pedagoglarning mutaxassisligi o'qitilayotgan fanlarning profili va mazmuniga mos keladi

(Bunda yangi ta'lim dasturi uchun ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha aniq reja taqdim etilgan taqdirda ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar bilan amalda ta'minlanish talab etilmaydi)

Yordamchi savollar:

❖ O'quv (ish) yuklamasini taqsimlashda professor-o'qituvchilarning mutaxassisligi (ixtisosligi), ilmiy-tadqiqot yo'nalishi va kasbiy kompetensiyasi qanday mezonlar asosida hisobga olingan?

❖ O'quv (ish) yuklamalarining adolatli va asosli taqsimlanganligini ta'minlash uchun qanday tartib va mexanizmlar qo'llanilgan?

❖ Yuklama taqsimotining mutaxassislik va kasbiy kompetensiyaga muvofiqligi qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi?

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ Pedagoglarni fan (modul)lar bo'yicha taqsimlash jadvali
- ✓ O'quv reja va fan (modul) dasturlari

21.3. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayoniga jalb qilingan pedagoglar dars berayotgan fan (modul)i bo'yicha malaka oshirishdan yoki qisqa muddatli treninglardan o'tkazilgan

(Bunda yangi ta'lim dasturi uchun o'quv-yordamchi kadrlar tarkibi bo'yicha aniq reja taqdim etilgan taqdirda o'quv-yordamchi kadrlar bilan amalda ta'minlanish talab etilmaydi)

Yordamchi savollar:


❖ Pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qanday tizimli malaka oshirish va qayta tayyorlash mexanizmlari joriy etilgan?

❖ Malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonlarida ishtirok etish tartibi, davriyligi va ustuvor yo'nalishlari qanday belgilangan?

❖ Malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarining pedagoglari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'siri qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ Malaka oshirish va qayta tayyorlash to'g'risidagi sertifikatlar nusxalari
- ✓ Malaka oshirish bo'yicha yillik reja va hisobotlar

22. MEZON: Ta'lim tashkilotiga pedagog kadrlarni belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish to'g'ri tashkil qilingani hamda kadrlar qo'nimsizligining oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rilgani 

Izoh: Ta'lim tashkilotida kadrlar bilan ishlash jarayonlari amaldagi qonunchilik va ichki me'yoriy hujjatlarga muvofiq ravishda ochiq, shaffof va adolatli amalga oshirilishi, pedagog kadrlarni tanlov orqali ishga qabul qilish, ularning mehnat faoliyati barqarorligini ta'minlash, ishdan bo'shatish jarayonlarida huquqiy talablarga rioya etish hamda kadrlar qo'nimsizligini kamaytirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilishi baholanadi.

22.1. INDIKATOR

Pedagog kadrlarni ishga qabul qilish jarayonlari amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlar asosida amalga oshiriladi

Yordamchi savollar:

❖ *Pedagoglarni ishga qabul qilish va mehnat shartnomasini bekor qilish jarayonlari qaysi mehnat to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlar va ta'lim tashkilotining ichki hujjatlari asosida amalga oshirilgan?*

❖ *Mazkur jarayonlarda tanlov hujjatlari, suhbat bayonnomalari, arizalar va buyruqlarni rasmiylashtirish hamda saqlash qanday tartibda tashkil etilgan?*

❖ *Ishga qabul qilish va mehnat shartnomasini bekor qilish jarayonlarining qonunchilik va ichki hujjatlarga muvofiqligi qanday monitoring va nazorat mexanizmlari orqali ta'minlangan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Pedagog kadrlarni ishga qabul qilish va bo'shatish tartibi to'g'risidagi ichki me'yoriy hujjat*

22.2. INDIKATOR

Ishga qabul qilish ochiq va shaffof tanlov asosida tashkil etiladi hamda xolis baholash mezonlari qo'llaniladi

Yordamchi savollar:

❖ *Pedagoglarni ishga qabul qilish jarayonlarida ochiqlik, xolislik va adolat tamoyillarini ta'minlash uchun qanday mexanizmlar joriy etilgan?*

❖ *Pedagoglarni ishga qabul qilish tanlov (imtihon, suhbat) asosida qanday tartibda tashkil etilgan va baholash mezonlari qanday belgilangan?*

❖ *Ishga qabul qilish bo'yicha bo'sh vakant lavozimlar bo'yicha e'lonlar berish va murojaatlar qabul qilish imkoniyati raqamlashtirilganmi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Pedagog kadrlarni ishga qabul qilish tanlov bayonnomalari*

22.3. INDIKATOR

Ishga qabul qilingan pedagog xodimlar bilan mehnat shartnomalari mehnat qonunchiligi talablari asosida rasmiylashtiriladi

Yordamchi savollar:

- ❖ *Pedagog xodimlarni ishga qabul qilishda mehnat shartnomalari qaysi mehnat qonunchiligi normalari va talablariga asoslanadi?*
- ❖ *Ishga qabul qilish jarayoni va mehnat shartnomalarini rasmiylashtirish tartibi qanday amalga oshirilgan?*
- ❖ *Mehnat shartnomalarining mehnat qonunchiligi talablariga muvofiqligi muntazam nazorati olib borilganmi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Pedagog kadrlarni ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi ichki me'yoriy hujjat*

✓ **22.4. INDIKATOR**

- ✓ **Pedagog kadrlarni ishdan bo'shatish jarayonlari mehnat qonunchiligi talablariga qat'iy rioya etgan holda amalga oshiriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ *Ishdan bo'shatish bo'yicha buyruqlar, ogohlantirish xatlari va boshqa hujjatlar mehnat qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilganmi?*
- ❖ *Pedagog xodimlar ishdan bo'shatish to'g'risida qonunchilikda belgilangan muddatlarda va belgilangan tartibda xabardor qilinganmi?*
- ❖ *Ishdan bo'shatish jarayonlarining qonuniyligini nazorat qilish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini olish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?*

✓ **Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Pedagog kadrlarni ishga qabul qilish va bo'shatish tartibi to'g'risidagi ichki me'yoriy hujjat*

23. MEZON: Pedagog kadrlarning xorijda va/yoki ishlab chiqarish korxonalarida malaka oshirishi yoki stajirovkalari tashkil etilgani

Izoh: *Qayta tayyorlash va malaka oshirish tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarni xorijda malaka oshirish va stajirovka o'taganligi hamda ularning bilim va ko'nikmalarini o'quv jarayoniga joriy etilganligi o'rganiladi.*

23.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkiloti xorijiy ta'lim tashkilotlari, ilmiy markazlar va ishlab chiqarish korxonalari bilan malaka oshirish va stajirovka bo'yicha hamkorlik kelishuvlariga ega

Yordamchi savollar:

❖ *Malaka oshirish va (yoki) stajirovka bo'yicha qaysi mahalliy va xorijiy ta'lim tashkilotlari, ilmiy markazlar hamda ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik kelishuvlari tuzilgan?*

❖ *Mazkur hamkorlik kelishuvlari doirasida malaka oshirish va stajirovka dasturlarini amalga oshirish shartlari va mexanizmlari qanday belgilangan?*

❖ *Hamkorlik kelishuvlari asosida amalga oshirilayotgan malaka oshirish va stajirovka faoliyatining samaradorligi qanday mezonlar asosida monitoring va baholanadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Hamkorlik shartnomalari (o'zaro anglashuv memorandumlari) reyestri yoki ro'yxati*

23.2. INDIKATOR

Oxirgi uch yilda stajirovka va malaka oshirishda ishtirok etgan pedagoglar ulushi o'sish tendensiyasini ko'rsatgan

Yordamchi savollar:

❖ *Oxirgi uch yil davomida stajirovkada va malaka oshirishda ishtirok etgan professor-o'qituvchilar ulushi qanday?*

❖ *Pedagoglarning stajirovkada va malaka oshirishda ishtirok etish ulushining barqaror o'sishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar nimalardan iborat?*

❖ *Ushbu o'sish tendensiyasini saqlab qolish va yanada kuchaytirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar rejalashtirilgan yoki amalga oshirilgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Stajirovka va malaka oshirish bo'yicha tahliliy statistik ma'lumot (jadval)*

23.3. INDIKATOR

Malaka oshirish va stajirovka jarayonlari uchun zarur moliyaviy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Stajirovka, malaka oshirish jarayonlari uchun qanday moliyaviy resurslar ajratilgan va ularning manbalari nimalardan iborat?*

❖ *Mazkur jarayonlarni samarali tashkil etish uchun qanday tashkiliy shart-sharoitlar (rejalashtirish, muvofiqlashtirish, infratuzilma) yaratilgan?*

❖ *Ajratilgan moliyaviy resurslardan foydalanish hamda yaratilgan tashkiliy shart-sharoitlarning samaradorligi qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Malaka oshirish va stajirovkalar bo'yicha hujjatlar*

23.4. INDIKATOR

Malaka oshirish yoki stajirovka natijalari bo'yicha olingan bilim va ko'nikmalar o'quv jarayoniga joriy etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Malaka oshirish yoki stajirovka natijalari bo'yicha hisobotlar qanday tartibda tayyorlangan va qaysi hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan?*

❖ *Malaka oshirish yoki stajirovka davomida olingan bilim va ko'nikmalarni o'quv jarayoniga joriy etish qanday mexanizmlar orqali amalga oshirilgan?*

❖ *Malaka oshirish yoki stajirovka natijalarining o'quv jarayoniga ta'siri va samaradorligi qanday monitoring va baholash mexanizmlari orqali aniqlanadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Malaka oshirish yoki stajirovka bo'yicha natijalarini dars jarayoniga tatbiq etilgani bo'yicha hujjatlar*

24. MEZON: Xodimlar faoliyati samaradorligini baholash tizimi (KPI)ning yo'lga qo'yilgani hamda u asosida xodimlarning moddiy va ma'naviy rag'batlantirilgani

Izoh: Ta'lim tashkilotida rahbar va pedagog kadrlar faoliyati KPI tizimi orqali belgilangan mezon va ko'rsatkichlar asosida baholanishi, natijalar asosida xodimlar moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilishi hamda tizim samaradorligi muntazam tahlil qilinishi va takomillashtirilishi baholanadi.

24.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotida rahbar va xodimlar hamda pedagoglar faoliyati samaradorligini baholash tizimi (KPI) to'g'risidagi tartib ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Rahbar va professor-o'qituvchilar faoliyati samaradorligini baholash (KPI) tizimi qanday maqsadlar, mezonlar va ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqilgan va qaysi hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *KPI ko'rsatkichlari rahbar va professor-o'qituvchilarning lavozim vazifalari, ta'lim, ilmiy va boshqaruv faoliyati bilan qanday uyg'unlashtirilgan?*

❖ *KPI tizimining amalda qo'llanilishi, baholash natijalarining xolisligi va ishonchliligi qanday monitoring va nazorat mexanizmlari orqali ta'minlanadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholash (KPI) tizimi bo'yicha ichki me'yoriy hujjat*

24.2. INDIKATOR

KPI ko'rsatkichlari va baholash mezonlari aniq belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *KPI tizimida o'quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy faoliyat yo'nalishlari qanday mezon va ko'rsatkichlar orqali qamrab olingan?*

❖ *Har bir yo'nalish bo'yicha KPI ko'rsatkichlari rahbar va professor-o'qituvchilarning lavozim vazifalari hamda kutilgan natijalari bilan qanday uyg'unlashtirilgan?*

❖ *Mazkur yo'nalishlar bo'yicha KPI ko'rsatkichlarining bajarilishi va ularning faoliyat samaradorligiga ta'siri qanday monitoring va baholash mexanizmlari orqali aniqlanadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *KPI tizimi bo'yicha ichki me'yoriy hujjat*

24.3. INDIKATOR

KPI baholash jarayoni ochiqlik va xolislik tamoyillari asosida amalga oshiriladi

Yordamchi savollar:

- ❖ *KPI ko'rsatkichlari va baholash mezonlari qanday tartibda aniq belgilangan va qaysi hujjatlar bilan tasdiqlangan?*
- ❖ *KPI bo'yicha baholash jarayonlarida ochiqlik, xolislik va adolat tamoyillarini ta'minlash uchun qanday mexanizmlar joriy etilgan?*
- ❖ *KPI baholash natijalariga nisbatan e'tiroz va apellyatsiyalarni ko'rib chiqish qanday tartibda tashkil etilgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *KPI tizimi bo'yicha ichki me'yoriy hujjat*

24.4. INDIKATOR

KPI baholash natijalari bo'yicha xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish amaliyoti yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *KPI baholash natijalari asosida rahbar va professor-o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish qanday tartib va mezonlar asosida amalga oshirilgan?*
- ❖ *Rag'batlantirish jarayonida ochiqlik, xolislik va adolat tamoyillariga rioya etilishi qanday mexanizmlar orqali ta'minlangan?*
- ❖ *KPI natijalari bo'yicha qo'llanilgan moddiy va ma'naviy rag'batlantirish choralarining xodimlar faoliyati samaradorligiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *KPI natijalari bo'yicha qo'llanilgan moddiy va ma'naviy rag'batlantirish choralarining xodimlar faoliyati samaradorligiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingani*

24.5. INDIKATOR

KPI tizimining samaradorligi davriy ravishda tahlil qilinib, natijalari bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi

Yordamchi savollar:

- ❖ *KPI tizimining samaradorligi qanday davriylikda va qanday tartibda tahlil qilingan?*
- ❖ *Tahlil jarayonida KPI tizimini baholash uchun qanday mezonlar va ko'rsatkichlardan foydalanilgan?*

❖ O'tkazilgan tahlillar natijalari asosida KPI tizimini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq takliflar ishlab chiqilgan?

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ Mas'ul bo'linmaning hisobotlari va takliflari

VI-bob. Tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishi

Izoh: Ta'lim xizmatlari sifatiga oid tinglovchilar fikr-mulohazalarini muntazam o'rganish va tahlil qilish, ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan tinglovchilar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish faoliyati baholanadi.

25. MEZON: Ta'lim xizmatlari yuzasidan tinglovchilar fikr-mulohazalarining monitoring qilinishi va uning natijalari asosida takomillashtirish choralarning ko'rilgani 🚫

Izoh: Ta'lim tashkilotida tinglovchilarning ta'lim sifati bo'yicha fikr-mulohazalarini tizimli ravishda o'rganish, tahlil etish va ular asosida ta'lim jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan samarali monitoring tizimi yo'lga qo'yilganligi baholanadi.

25.1. INDIKATOR

Tinglovchilar fikr-mulohazalarini o'rganish mexanizmlari yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ Tinglovchilarning fikr-mulohazalarini o'rganish bo'yicha ichki tartib (yo'riqnoma) hamda so'rovnoma (anketa) shakli qanday tartibda ishlab chiqilgan?

❖ So'rovnoma (anketa) orqali tinglovchilarning ta'lim sifati va yaratilgan sharoitlardan qoniqish darajasini baholashda qaysi asosiy yo'nalishlar va ko'rsatkichlar qamrab olingan?

❖ Ishlab chiqilgan yo'riqnoma va so'rovnoma metodologiyasining amalda qo'llanilishi hamda natijalarining ishonchliligi qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali ta'minlanadi?

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Tinglovchilar fikr-mulohazalarini o'rganish hamda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisobot*

25.2. INDIKATOR

Tinglovchilar qoniqishini baholash bo'yicha so'rovnoma (anketa) shakli va metodologiyasi ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tinglovchilarning fikr-mulohazalarini o'rganish bo'yicha so'rovnomalar, intervyular, muhokamalar va boshqa tadbirlar qanday va qaysi shakllarda o'tkazilgan?*

❖ *Mazkur so'rovlar va tadbirlarni o'tkazishda qaysi toifadagi tinglovchilar qamrab olingan va ularning ishtiroki qanday ta'minlangan?*

❖ *O'tkazilgan so'rovnomalar, intervyular va muhokamalar natijalari qanday tizimli ravishda tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *So'rovnoma (anketa) shakli va metodologiyasi*

25.3. INDIKATOR

Fikr-mulohazalarni yig'ish bo'yicha monitoring tizimi mavjud (onlayn anketa platformasi)

Yordamchi savollar:

❖ *Tinglovchilarning fikr-mulohazalarini yig'ish uchun qaysi monitoring tizimi yoki onlayn anketa platformasi joriy etilgan?*

❖ *Mazkur onlayn anketa platformasi orqali fikr-mulohazalarni yig'ish, saqlash va tahlil qilish jarayonlari amalga oshiriladimi?*

❖ *Onlayn anketa platformasi orqali yig'ilgan ma'lumotlardan ta'lim sifati va yaratilgan sharoitlarni takomillashtirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar belgilangan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Monitoring platformasi hisoboti*

25.4. INDIKATOR

Tinglovchilar fikr-mulohazalarining umumiy natijalari kafedra (bo'lim, kengash va b.) yig'ilishida muhokama qilingan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Tinglovchilarning fikr-mulohazalarini o'rganish natijalari o'quv jarayonini takomillashtirishda inobatga olinganmi?*
- ❖ *Tinglovchilar fikr-mulohazalari asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarning ijrosi qanday ta'minlangan?*
- ❖ *Chora-tadbirlar rejasining ijrosi va amalga oshirilgan o'zgarishlarning ta'lim sifati hamda tinglovchilar qoniqishiga ta'siri qanday tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Institut (markaz) kengashi, kafedra yoki tegishli bo'limlar bayonnomalari*

26. MEZON: Tinglovchilarga yetarli darajada ta'lim olish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish hamda karyera xizmatlarining tashkil etilgani 

Izoh: Ta'lim tashkilotida tinglovchilarni ijtimoiy, akademik va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda ularga maslahat berish uchun malakali mutaxassislar jalb etilganligi baholanadi.

26.1. INDIKATOR

Tinglovchilarni ijtimoiy, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish tizimi yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Tinglovchilarni ijtimoiy, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish tizimi qanday tarkibiy tuzilma va mexanizmlar orqali yo'lga qo'yilgan?*
- ❖ *Mazkur maslahat berish tizimi doirasida tinglovchilar uchun qaysi turdagi xizmatlar (akademik maslahat, psixologik maslahat, ijtimoiy masalalar bo'yicha ko'mak) taqdim etiladi?*
- ❖ *Maslahat berish tizimidan foydalanish samaradorligi va uning tinglovchilar muvaffaqiyati hamda farovonligiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

- ✓ *Tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash xizmatlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqida hisobot*

26.2. INDIKATOR

Tinglovchilar ijtimoiy, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlash uchun malakali mutaxassislar jalb qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Tinglovchilarni ijtimoiy, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha qaysi tarkibiy bo'linma tashkil etilgan yoki qaysi mas'ul xodimlar ajratilgan?*

❖ *Mazkur tarkibiy bo'linma yoki mas'ul xodimlarning vazifalari, vakolatlari va javobgarligi qanday hujjatlar bilan belgilangan?*

❖ *Tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tarkibiy bo'linma yoki mas'ul xodimlar faoliyatining samaradorligi qanday monitoring va baholash mexanizmlari orqali aniqlanadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Tarkibiy bo'linmani tashkil etish yoki mas'ul xodimlarni belgilash to'g'risidagi hujjatlar*

26.3. INDIKATOR

Tinglovchilardan olingan fikr-mulohazalar asosida xizmatlar faoliyati takomillashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tinglovchilardan fikr-mulohazalarni yig'ish (so'rovnoma, intervyu, onlayn platformalar, murojaatlar va boshqalar) qanday usullar orqali va qaysi davriylikda amalga oshiriladi?*

❖ *Olingan fikr-mulohazalar qaysi bo'lim yoki mas'ul shaxslar tomonidan tahlil qilinadi va umumlashtiriladi?*

❖ *Tinglovchilarning taklif va e'tirozlari asosida xizmatlar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar ishlab chiqilgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Xizmatlar faoliyati takomillashtirilgan bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar va amalga oshirilgan ishlar hisoboti*

27. MEZON: Ijtimoiy himoyaga muhtoj va imkoniyati cheklangan tinglovchilar uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilgani 🚫

Izoh: *Ta'lim tashkilotida ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash hamda ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha samarali tizim va rag'batlantirish mexanizmlari yo'lga qo'yilganligi baholanadi*

27.1. INDIKATOR

Ijtimoiy himoyaga mansub tinglovchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil qilishda imtiyozlar belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli tinglovchilarni aniqlash uchun qanday mezonlar va tartiblar ishlab chiqilgan hamda qaysi hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur toifadagi tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun qanday mexanizmlar (stipendiyalar, grantlar, moddiy yordam, individual yondashuv, qo'shimcha imkoniyatlar) joriy etilgan?*

❖ *Aniqlash va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi hamda ularning tinglovchilar akademik muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuviga ta'siri qanday?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Tizimni joriy etish bo'yicha ichki hujjatlar, yaratilgan shart-sharoitlar*

27.2. INDIKATOR

Imkoniyati cheklangan tinglovchilar uchun ta'lim va infratuzilma sharoitlari yaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli tinglovchilarning ro'yxatlari qanday mezonlar va hujjatlar asosida shakllantirilgan?*

❖ *Mazkur toifadagi tinglovchilar uchun individual ta'lim trayektoriyalarini ishlab chiqishda qaysi akademik, psixologik va ijtimoiy omillar inobatga olingan?*

❖ *Individual ta'lim trayektoriyalarining ijrosi va ularning tinglovchilar akademik rivojlanishi hamda moslashuviga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Imkoniyati cheklangan tinglovchilar uchun individual ta'lim trayektoriyalarini tasdiqlash to'g'risidagi hujjatlar (ro'yxati bilan)*

✓ 27.3. INDIKATOR

✓ Ta'lim tashkilotida tinglovchilar turar joyi (TTJ) mavjud va uning faoliyati tashkil etilgan

Yordamchi savollar:

✓ *Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli tinglovchilarni turar joylarga joylashtirish imkoniyati qanday?*

✓ *Mazkur toifadagi tinglovchilar uchun turar joylarda qanday qulayliklar va moslashtirilgan sharoitlar (imkoniyati cheklanganlar uchun infratuzilma, imtiyozlar) yaratilgan?*

✓ *Tinglovchilar turar joylari va yashash sharoiti bo'yicha ularning fikr-mulohazalari o'rganilgani va amalga oshirilgan chora-tadbirlar tahlili*

✓ **Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Tinglovchilar turar joyiga joylashtirish to'g'risidagi hujjatlar (ro'yxatlari bilan)*

27.4. INDIKATOR

TTJda madaniy va ma'rifiy tadbirlari hamda tinglovchilar bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha faoliyat yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tinglovchilar turar joyida tarbiyaviy, madaniy va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha qaysi tadbirlar va faoliyat turlari tashkil etilgan?*

❖ *Tinglovchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun qanday mexanizmlar (to'garaklar, klublar, treninglar, madaniy tadbirlar) yo'lga qo'yilgan va kimlar mas'ul etib belgilangan?*

❖ *Mazkur tadbirlar va faoliyatlar tinglovchilarning ijtimoiy moslashuvi, psixologik holati va umumiy qoniqish darajasiga ta'siri qanday bo'lgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Madaniy va ma'rifiy va amalga oshirilgan tadbirlar bo'yicha hisobotlar*

28. MEZON: Tinglovchilarning huquqlarini himoya qilish va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibining mavjudligi

Izoh: *Ta'lim tashkilotida tinglovchilar huquqlarini himoya qilish, shikoyat va murojaatlarni qabul qilish hamda ko'rib chiqish bo'yicha aniq belgilangan tartib va samarali monitoring tizimi yo'lga qo'yilganligi va uning natijalari asosida tizimli takomillashtirish choralari ko'rilganligi baholanadi*

28.1. INDIKATOR

Tinglovchilar huquqlarini himoya qilish, shikoyat va murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonini tartibga soluvchi ichki hujjat mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Tinglovchilarning huquqlarini himoya qilish hamda ularning ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish bo'yicha ichki tartib (yo'riqnoma, nizom) qanday tartibda ishlab chiqilgan va qaysi hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur ichki tartibda tinglovchilarning ariza va shikoyatlarini qabul qilish, ro'yxatga olish, ko'rib chiqish va javob berish jarayonlari qanday bosqichlarda belgilangan?*

❖ *Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonlarining xolisligi, shaffofligi va samaradorligi qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali ta'minlanadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Tinglovchilar huquqlarini himoya qilishni tartibga soluvchi me'yoriy hujjat*

28.2. INDIKATOR

Shikoyat va murojaatlarni qabul qilish uchun axborot tizimi joriy etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tinglovchilarning shikoyat va murojaatlarini qabul qilish uchun o'ziga xos tizim (adolat qutlari, elektron platformalar, mas'ul shaxslar, psixolog, ishonch telefoni va boshqalar) joriy etilgan?*

❖ *Mazkur shakllar orqali murojaatlarni qabul qilishda tinglovchilar shaxsini maxfiyligi, erkinligi va teng imkoniyatlari qanday ta'minlangan?*

❖ *Turli internet tarmoqlari orqali kelib tushgan ariza va shikoyatlarni ro'yxatga olish, ko'rib chiqish va javob berish jarayonlari qanday amalga oshirilmoqda?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Ariza va shikoyatlarni qabul qilish tartibi to'g'risidagi hujjatlar*

28.3. INDIKATOR

Tinglovchilar murojaatlarini ko'rib chiqish muddati va tartibiga rioya qilinadi

Yordamchi savollar:

❖ *Shikoyat va murojaatlarni ko'rib chiqishda belgilangan muddatlar va tartiblarga rioya etilishi qanday mexanizmlar orqali ta'minlangan?*

❖ *Shikoyat va murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarini ta'minlash uchun qanday choralar (ro'yxatga olish, javoblarni rasmiylashtirish, hisobot yuritish) qo'llanilgan?*

❖ *Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik uchun shikoyat va murojaatlarni ko'rib chiqishda qanday nazorat (mustaqil mas'ullar, komissiya, qayta ko'rib chiqish) mexanizmlari joriy etilgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha hisobot (yoki reyestr)*

28.4. INDIKATOR

Shikoyatlar va murojaatlar bo'yicha qarorlar rasmiy ravishda hujjatlashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tinglovchilar tomonidan kelib tushgan shikoyat va murojaatlar ro'yxati qanday tartibda yuritilgan va unda qaysi majburiy ma'lumotlar (sana, mazmuni, mas'ul shaxs, holati) aks ettirilgan?*

❖ *Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun belgilangan muddatlar qanday normativ hujjatlar asosida belgilangan va ularga rioya etilishi qanday nazorat qilingan?*

❖ *Shikoyat va murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonlari qanday hujjatlar (bayonnomalar, xulosalar, javob xatlari) orqali hujjatlashtirilgan va saqlangan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha hisobot (yoki reyestr)*

28.5. INDIKATOR

Murojaatlar natijalari tahlil qilinib, tizimli choralar ko'rilgan

Savollar:

❖ *Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish natijalari qanday davriylikda va qaysi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilingan?*

❖ *Tahlil jarayonida tinglovchilar huquqlarini himoya qilish tizimidagi qanday asosiy muammo va kamchiliklar aniqlangan?*

❖ *Aniqlangan muammolar asosida tinglovchilar huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish uchun qanday tizimli chora-tadbirlar joriy etilgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Murojaatlar natijalari tahlili va amalga oshirilgan ishlar hisoboti*

VII-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Izoh: *Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur binolar, laboratoriyalar, amaliy mashg'ulot xonalari, kutubxona va axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi ta'lim dasturlari talablariga muvofiq jihozlanganligi va doimiy yangilanib borilishi hamda moddiy-texnik baza tinglovchilar ehtiyojlari hamda mehnat bozori talablariga mos bo'lishi va ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini beradigan faoliyat baholanadi.*

29. MEZON. *Ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, o'quv jarayonini tashkil qilish uchun tinglovchilar kontingentiga mos ravishda zarur bino va*

inshootlar, zamonaviy moddiy-texnik baza, xomashyo materiallari va dasturiy ta'minot bilan ta'minlangan!

***Izoh:** Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur auditoriyalar, laboratoriyalar, amaliy mashg'ulot xonalari, axborot resurs markazi va boshqa infratuzilmalarning mavjudligi va jihozlanganligi, moddiy-texnik baza, o'quv-ilmiy asbob-uskunalar va simulyatorlarning holati, amaliy faoliyat uchun zarur xomashyo va materiallarning yetarliligi hamda tinglovchilar va professor-o'qituvchilarning elektron platformalar va dasturiy ta'minotga kirish imkoniyati baholanadi.*

29.1. INDIKATOR

Ta'lim muassasasining umumiy maydoni tinglovchilarning kontingenti hisobga olingan holda o'quv xonalari, laboratoriyalar, amaliy mashg'ulot xonalari, axborot resurs markazi va boshqa infratuzilmalar bilan ta'minlangan*

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotining umumiy maydoni tinglovchilarning kontingenti hisobga olingan holda hisob-kitoblar va me'yor talablari asosida rejalashtirilgan va taqsimlangan?*

❖ *Bino va inshootlar, auditoriyalar, maxsus xonalar, laboratoriyalar, amaliy mashg'ulot xonalari, amaliyot bazalari hamda axborot-resurs markazining mavjud quvvati ta'lim dasturlarini to'liq amalga oshirish imkonini ta'minlash ko'rsatkichlari qanday?*

❖ *Mavjud infratuzilmaning yetarliligi va samarali foydalanilishi qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi hamda aniqlangan ehtiyojlar asosida takomillashtirish choralari ko'rilgan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalar ro'yxati hamda tegishli jadvallar asosida.

✓ Asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarni tashkilot balansida mavjudligi

29.2. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotining bino va inshootlari va moddiy-texnik bazasi mehnatni muhofaza qilish qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, shaharsozlik normalari va qoidalari hamda yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga javob beradi

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotining bino va inshootlari hamda moddiy-texnik bazasining mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, shaharsozlik, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga muvofiqligi qanday hujjatlar va tekshiruvlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur talablarga rioya etilishini ta'minlash uchun qanday ichki nazorat, profilaktik tekshiruvlar va rejalashtirilgan tadbirlar amalga oshirilgan?*

❖ *Aniqlangan kamchiliklar va xavf-xatarlarni bartaraf etish hamda infratuzilmani doimiy ravishda xavfsiz holatda saqlash bo'yicha qanday chora-tadbirlar ko'rilgan va ularning ijrosi qanday monitoring qilingan?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Bino va inshootlar, moddiy-texnik bazasi jihozlanish me'yorlariga muvofiqligi to'g'risidagi hujjatlar (yo'riqnomalar va dalolatnomalar)*

✓ *Evakuatsiya rejasi va yong'in xavfsizligi hujjatlari*

29.3. INDIKATOR

Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar tinglovchilarning amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, musiqa asboblari, texnik vositalar va xomashyo bilan yetarli darajada ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturlarida belgilangan o'quv natijalaridan kelib chiqqan holda laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, jihozlar va boshqa zarur vositalar bilan ta'minlanganlik holati qanday?*

❖ *Mazkur asbob-uskunalar va materiallarning miqdori, holati va yangilanish darajasi tinglovchilarning amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish talablariga qanday muvofiq keladi?*

❖ *Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan jihozlar va vositalardan foydalanish samaradorligi hamda yetarliligi bo'yicha tahlil qilinganmi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Laboratoriya va amaliy mashg'ulot xonalari soni va ularning tinglovchilar soniga muvofiqligi to'g'risida ma'lumot*

✓ *Asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarni tashkilot balansida mavjudligini asoslovchi hujjatlar*

29.4. INDIKATOR

Tinglovchilar va pedagoglarning elektron ta'lim platformalari hamda dasturiy ta'minotlarga kirish imkoniyati mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Tinglovchilar va pedagoglar uchun qaysi elektron ta'lim platformalari (LMS, Zoom, Moodle, Google Classroom va boshqalar) hamda dasturiy ta'minotlarga kirish imkoniyati yaratilgan?*

❖ *Mazkur platformalar va dasturiy ta'minotlardan foydalanish uchun foydalanuvchilarga login-parollar, texnik yo'riqnomalar va metodik ko'mak qanday tartibda taqdim etilgan?*

❖ *Elektron ta'lim platformalaridan foydalanish darajasi va ularning o'quv jarayoni samaradorligiga ta'siri qanday monitoring va tahlil mexanizmlari orqali baholanadi?*

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ *Elektron ta'lim platformalari hamda dasturiy ta'minot vositalari mavjudligini tasdiqlovchi materiallar*

✓ *Tinglovchilar va pedagoglarning elektron ta'lim platformalari hamda dasturiy ta'minotlarga kirish imkoniyati mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar*

29.5. INDIKATOR

Infratuzilmadan foydalanish va uni rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lar bo'yicha moliyaviy hisobotlar mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Infratuzilma va uni rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lar qaysi manbalar (byudjet, grantlar, kontrakt tushumlari, homiylik yoki boshqalar) hisobidan shakllantirilgan va qanday yo'nalishlar bo'yicha sarflangan?*

❖ *Mazkur mablag'lardan foydalanish bo'yicha moliyaviy hisobotlar qanday davriylikda tayyorlangan va qaysi moliyaviy hujjatlar (smeta, xarajatlar reyestri, dalolatnomalar) bilan tasdiqlangan?*

